

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Хитой тилида “Tongyongu” умумтушунарли ва кенг
кўламдаги адабий нутқ

Bajardi: “Xitoy filologiyasi” ta'lim yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi N. Maqsudova#_____

TOSHKENT- 2012_

MUNDARIJA

Kirish	3
1-bob: 通用语 tongyongyu va uning rivojlanish bosqichlari.....	9
1-1. 雅言 yayan	12
1-2. 通语 tongyu	18
1-3. 官话 guanhua	21
1-4. 国语 guoyu	26
1-5. 普通话 putonghua	29
2-bob: 普通话 putonghuaning fonetik strukturasi.....	35
2-1. 拼音字母 pinyin zimu.....	36
2-2. 声母 shengmu va 韵母 yunmu.....	42
a) 声母 shengmu.....	42
b) 韵母 yunmu.....	46
2-3. Qo'shib yozish qoidalari.....	59
2-4. 声调 shengdiao.....	63
2-5. 音节 yinjie.....	69
Xulosa	74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	77
Ilova	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi paytda yurtimiz ko'plab jahon mamlakatlari bilan do'stona aloqalar o'rnatib, ilm-fan, texnika va madaniyat borasida ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Bu yutuqlar samarasi o'laroq, biz yoshlarga Prezidentimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda barcha bilimlarni egallashimiz, ko'plab mamlakatlar tilini, urf-odatlarini, madaniyatini hamda tarixini o'rganmog'imiz, ilm-fan cho'qqisiga ulkan hissa qo'shmog'imiz va buyuk ajdodlarimizning davomchilari degan g'urur va fahr hissini anglamog'imiz zarur. Qadim-qadimdan yurtimiz va Xitoy o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud bo'lgan, hozirgi kunga kelib esa bu aloqalar yanada mustahkamlanmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimovning 2011-yil aprel oyida Xitoyga tashrifi bu ikki buyuk mamlakat xalqlari tarixida yangi davr pafos olib kirdi. Tashrif chog'ida 24 ta bitim imzolandi. Xitoy bilan imzolangan barcha bitimlarning ahamiyatli ekanligini takidlagan holda, ayniqsa madaniyat va ta'lim sohasida hamkorlikni yanada kuchaytirish haqidagi fikrlar biz uchun o'ta qimmatlidir. Zero, bugungi kunga kelib fan va taraqqiyotda koinotni zabt etayotgan Xitoydek ulkan davlatning fandagi yutuqlarini o'rganish fanimiz uchun ham har tomonlama dolzarb masala deyish mumkin. Kun sayin mustahkamlanib borayotgan do'stona aloqalar mamlakatimizda xitoy tilini rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Xitoy tili BMTda keng qo'llanadigan oltita tildan biri bo'lib, hozirda bu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Bizning yurtimizda ham xitoy tilini o'rganishga bo'lgan talab borgan sari ortib bormoqda.

Mavzuyimiz bilan bog'liq Xitoy jamiyatida nutqning egallagan o'rni qanday bo'lgan, tarixda xitoy tiliga qanday munosabatda bo'lib kelingan degan savol paydo bo'lishi tayin. Shu o'rinda esa xitoyliklarning "tarix millatning onasi" degan maqolini eslab o'tishimiz kifoya qilsa kerak. Zero, til ijtimoiy hodisa sifatida har bir millatning "buloq ko'zgusidir". Xitoyning o'z tarixida nutqning millat taqdiri

va taraqqiyoti uchun uning ahamiyatini nechog'li erta anglab yetgani masalasini tadqiq etish davr nuqtai nazardan dalzarb masaladir. Biz o'rganayotgan "Xitoy tilida 通用语 tong yong yu (umumtushunarli va keng qo'llanadigan nutq)" mavzusi Xitoy ijtimoiy hayotida o'rganish zamonlar o'tsada, dalzarb masalaligicha qolmoqda. Bugunga kelib esa, xitoy jamiyatida bu masalani yanada chuqurroq o'rganishga qiziqish ortmoqda. Chunki Xitoyda nutq masalasi o'ta muhim masalalardan biridir.

Ma'lumki, Xitoy hududi hamda aholisi jihatidan ulkan mamlakatdir. U yerda yashovchi millatlarning soni esa qadimdan juda ko'p bo'lgan. Xitoyda millat va elatlarning ko'pligi, ko'p shevalikka olib kelgan. Zero ko'p shevalik esa, o'zaro aloqa qilishda anchayin qiyinchiliklarga sabab bo'lgan. Shuning uchun azaldan Xitoyda adabiy nutq, ya'ni umumtushunarli nutqga ehtiyoj paydo bo'lgan va adabiy nutq shakllangan. Xitoyda adabiy nutq shakllangandan to hozirgacha turli bosqichlarni bosib o'tgan va quyida uning rivojlanish bosqichlarini keltirib o'tamiz.

1. 雅言 yayan (mil. av. VIII, VI – mil. av. III, II asrlar)
2. 通语 tongyu (mil. av. III, II – mil. XI asrlar)
3. 官话 guanhua (mil. IX – X asrning)
4. 国语 guoyu (1914 – 1957 – yillarda)
5. 普通话 putonghua 1957-yilda qo'llanila boshlandi.

Yuqorida keltirib o'tilgan adabiy nutqning rivojlanish bosqichining eng so'nggisi ya'ni hozirgi kunda qo'llaniladigan adabiy tilning og'zaki nutqi bu putonghuadir. Putonghuaning fonetik strukturasi o'ziga xos bo'lib, undagi tovushlarni berish uchun lotin grafikasiga asoslangan alifbo asos qilib olingan. Bu

pinyin zimu deb nomlangan. Bu pinyin zimu 1958 – yilda qabul qilingan. Xitoy tili fonetikasining tarkibiga 拼音字母 pinyin zimu, 声母 shengmu (undosh tovush), 韵母 yunmu (unli tovush), 声调 shengdiao (ohang) 音节 yinjie (bo'g'in) va qo'shib yozish qoidalari kiradi. 普通话 Putonghua talaffuzini berishda ularning xizmatlari katta.

Pinyin zimu unli va undosh tovushlardan iborat bo'lib, bu unli va undosh tovushlar shengmu va yunmuni shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shengmu bir yoki ikki undosh tovushdan tashkil topadi, unli esa bir, ikki yoki uchta unlidan ham tashkil topadi. Bu shengmu va yunmuning unli va undosh tovushlardan asosiy farqlaridan biridir.

Xitoy tilidagi barcha ierogliflar bir bo'g'indan iborat, ba'zida ikkita ieroglif ham bir bo'g'in bo'lib kelishi mumkin. Masalan: 画儿 huar¹, 哪儿 nar.

Bo'g'in shengmu va yunmularning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Shengmu va yunmularning qo'shilishi jarayonida ba'zi istisno holatlari mavjud. Bular tovushlarning tushishi yoki ortishi va shunga o'xshash bir qancha holatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: i, in, ing mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda ularning oldiga y tovushi qo'shiladi va natijada yi, yin, ying holatida yoziladi.

Ohang xitoy tilida o'ziga xos o'rin egallaydi. U xitoy tili fonetikasining asosiy qismlaridan biridir. Xitoy tilida 4 ta ohang turi mavjud bo'lib, bular tekis ohang, ko'tariluvchi ohang, pastlab yana ko'tariluvchi ohang va tushuvchi ohang.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. Mavzuyimizning o'rganilganligiga e'tibor qaratar ekanmiz, xususan chet el tilshunosligidan M. V. Sofronov, A. A. Dragunov, Zhou Enley, S. E. Yaxontov, Lin Zhuyu, Lu Zhiwei, Liuyu Shuxiang va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. O'zbek

¹ Китайско – русский русско-китайский словарь, М.:2009, В. 112.

tishunosligida ham bu mavzu M. A. Maxmudxo'jayev, A. A. Karimov, I. Bekmuratov, Sh.I. Hidoyatova, E. M. Aminov, Sh. Shozamonovlar tomonidan o'rganilgan. Bu tasqiqotlari albatta ilm-fan yutuqlariga ulkan hissa qo'shadi.

Tatqiqot manbalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi ustida izlanishlar olib borish jarayonida “实用普通话培训教程”，“现代汉语” “ Китайский язык китайский общество ” kitoblaridan va « 辞海 cihai 》， «Китайский – русский словарь» lug'atlaridan foydalandik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Xitoy tilida 通用语 tongyongyu (umutushunarli va keng qo'llanadigan nutq) ni o'rganib chiqish. Shunga muvofiq quyidagilarni maqsad qilib qo'ydik:

- 通用语 tongyongyuning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- 雅言 yayanni o'rganib chiqish;
- 通语 tongyuni o'rganib chiqish;
- 官话 guanhuanini o'rganib chiqish;
- 国语 guoyuni o'rganib chiqish;
- 普通话 putonghuani o'rganib chiqish;
- Adabiy nutq 普通话 putonghuaning fonetik strukturasini o'rganib chiqish;
- 声母 shengmu va 韵母 yunmu organib chiqish;

- Qo'shib yozish qoidalarini ko'rib chiqish;
- 声调 shengdiao ko'rib chiqish;
- 音节 yinjie o'rganib chiqish;

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Ushbu BMI o'zbek xitoyshunosligida hali o'rganilmagan bo'lib, uning rivojlanish bosqichlari o'rganilayotgan dastlabki ishlardan hisoblanadi. Ish jarayonida xitoy tilidan , rus tilidan o'zbek tiliga katta hajmdagi tarjimalar amalga oshirildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati. Tadqiqot materiallaridan xitoy tiliga oid bo'lgan turli xil darsliklar, o'quv qo'llanmalar tayyorlash, xususan xitoy tili fanida qo'llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Tadqiqot materiallari xitoy tilini o'rganuvchilar uchun xitoy tilida to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Xitoy tilida 通用语 tongyongyu (umumtushunarli va keng qo'llanadigan nutq).

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: Mavzuyimizning predmeti yayan, tongyu, guanhua, guoyu, putonghua, pinyin zimu, shengmu, yunmu, bo'g'in, ohang va qo'shib yozish qoidalari hisoblanadi. Ular xitoy adabiy nutqining rivojlanish bosqichlarini va uning fonetikasini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining joriylanishi: Bitiruv malakaviy ishimizning mavzusiga oid bizning ilmiy rahbarim f. f. n. dotset Maxmudxo'jayev M. X. bilan birgalikdagi bir qancha to'plamlarda bir nechta ilmiy maqolalarimiz chop etilgan. Bular: “ Xitoyshunos talabalar ilmiy to'plami” da adabiy nutq guanhua haqida, “Iqtidorli talabalar ilmiy to'plami”da yayan va tongyu haqida maqalalarimizdir.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz Kirish, Asosiy qism, Xulosa va Ilovadan iborat. Asosiy qism ikki bobdan iborat. Birinchi bobda, Tongyongyuning rivojlanish bosqichlari va ularning turlari batafsil yoritilgan. Ikkinchi bobda esa putonghuaning fonetik strukturasi ochib berilgan va uning fonetik strukturasi boshqa tillarning fonetik strukturasi bilan tub farq qilish yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: ToshDSHI instituti Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo Tillari fakulteti Xitoy filologiyasi kafedrasida tasdiqlangan.

1-bob. 通用语 Tong yong yu (umumtushunarli va keng qo'llanadigan adabiy nutq) ning rivojlanish bosqichlari

Xitoylar o'zlarini han deb ataydilar, ularning soni hozirgi kunga kelib taxminan 1 milliard 300 million² atrofidadir. Bu millatning tili xitoy-tibet tillar oilasiga mansub bo'lib, ko'p sheva xususiyatlariga ega.³ Mazkur shevalar uzoq tarixiy davrda bir-biri bilan munosabatda bo'lar ekan, ular o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatib, yozma va talaffuz tomondan normaga solingan, hamma tushunadigan tilni shakllantirgan. Buni tarixda umummilliy til deb ham atashadi, ya'ni xitoycha "minzu gongtongyu" ("民族共同语")⁴ atamasi shu ma'noni anglatgan. Minzu gongtongyu qayta ishlangan va me'yorga solingan adabiy nutqdemakdir. Ammo shuni aytish joizki, keyingi davrlarda, ayniqsa XX asrning birinchi yarmida, ya'ni Xitoy Xalq

² www. Google. uz

³ Hozirgi zamonda xitoy tilida bir-birovidan ancha darajada ajrab turadigan 7 ta yirik sheva mavjud: 1) "bei fan fan yan" (北方方言) (buni guan hua shevasi deb ham atashadi) shimoliy sheva; 2) wu yu 吴语 shanghai shevasi; 3) zu yu 祖语 Xunan shevasi ; 4) gan yu 赣语 Jiang Su shevasi 5) Ke Jia 客家 shevasi; 6) Guang Zhun 闽语 shevasi; 7. 粤语 yue yu Fu Jiang shevasi.

⁴ «xitoycha – ruscha, ruscha – xitoycha tilshunoslik atamalarining qiyoslash lug'ati» ("汉俄，俄汉对照语言学名词") Pekin:. 1961, B. 31, 106.

Respublikasi qurilgandan so'ng milliy tilga qayta ishlov berilib, uni "biaozhunyu" ("标准语") va "wenxueyu" ("文学语") deb atay boshladilar. Bu ikki atamani o'zimizning tilimizga tarjima qiladigan bo'lsak, birinchisi "normaga yoki me'yorga solingan til" deb tarjima qilinsa, ikkinchisi "adabiy til" deb tarjima qilingan.⁵

Yuqorida takidlaganimizdek, adabiy nutqni qayta ishlash jarayonida ijod qilingan so'nggi ikkita ya'ni "biaozhunyu" va "wenxueyu" atamaları "minzu gongtongyu" atamasining ichki mazmunini anglatadi. Shu sababli xitoyning tilshunos olimlari, bu uchta atamani bir ma'noni anglatuvchi sinonimlar deb tushuntirish beradilar.⁶

Garchi shunday ekan, biz gongtongyuning o'rniga mazkur ishimizda wenxueyu atamasini, ya'ni adabiy til atamasini ishlatishga qaror qildik. Chunki adabiy til bizning tilimizda keng tarqalgan, shu bilan birga ruhiyatimizga moslashgan. "Adabiy til" atamasiga bizning tilshunos olimlar quyidagi izohni beradi: "umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, turli madaniy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning birinchi shakli yozma, ikkinchi shakli esa og'zaki".⁷

Hozirgi paytda xitoy adabiy tiliga bu izoh juda ham mos tushib, faqat unga biroz aniqlik kiritishimiz lozim. Chunki xitoy tili qadimiy tillardan biri bo'lib, u 3000 yillik tarixga ega. Uzoq tarixiy davr mobaynida u turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Anashu uzoq rivojlanish jarayonida uning yozma shakli⁸ va og'zaki shaklini⁹ anglatuvchi bir qancha sinonim atamaları paydo bo'lgan. Masalan: yozmada bir ma'noni anglatuvchi ikkita atama:

⁵ «Китайский – русский словарь», М.: 1980, с. 350, 383.

⁶ "Hozirgi zamon xitoy tili" ("现代汉语"), Pekin, 1984, B.6. "yu yan xue bai tie" ("语言学百题") – tilshunoslikdagi 100 ta atama. Shanxay, 1983, B.186.

⁷ A. Xojiyev «Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati», Toshkent, 2002, B.10.

⁸ Xitoyliklar bu atamani "shu mian yu" ("书面语") deb yuritadilar.

⁹ Xitoyliklar bu atamani "kou tou yu" ("口头语") deb ataydilar.

1."Wenyan" ("文言")

2."Baihua" ("白话")

Adabiy tilning og'zaki nutqini anglatuvchi 5 ta atama mavjuddir. Bular :

1."yayan" ("雅言")

2."tongyu" ("通语")

3."guanhua" ("官话")

4."guoyu" ("国语")

5."putonghua" ("普通话")

Shuni aytish kerakki, yuqoridagi og'zaki nutqni anglatuvchi atamalar bir vaqtda emas, balki turli davrlarda ketma-ket paydo bo'lib, o'z navbatidan ilgari ishlatilayotgan atamaning o'rnini egallagan.¹⁰

Xitoy adabiy tilining og'zaki shakli xitoy til tarixida 5 ta atama bilan ifodalangan bo'lsada, ularning hammasi me'yorga solingan, ya'ni hamma tushunadigan talaffuzda, adabiy tilning yozma shaklining nutqini ifoda qilgan. Shu sababli XX asrda faoliyat ko'rsatgan xitoy tilshunoslari 5 ta atamani jipslashtirib, adabiy tilning me'yoriy talaffuzini anglatuvchi atamalarini jipslashtirgan yangi bir atamani yaratishgan. Bu atama " tongyongyu " ("通用语") deb nomlandi. Ya'ni umumtushunarli va keng qo'llanadigan adabiy nutq demakdir.¹¹

¹⁰ "实用普通话培训教程". 山东. 2004. 页. 5.

¹¹ 通用语 tongyongyu haqida 实用普通话培训教程 kitobida batafsil ma'lumot berilgan.

Biz o'z ishimizda xitoy adabiy tilining yozmasini emas, balki uning og'zakisini ya'ni " tongyongyu" qismini yaxshilab o'rganib, har xil qirralarini ochib, bir sistemaga solib, bizning ixtiyorimizdagi bor adabiyotlarni ishga solib, ma'lum bir darajada boshi bor, yakuni bor tushunchaga ega bo'lishni maqsad qilib qo'ydik.

1-1. 雅言 Yayan

Xitoy qadimdan ko'p millatli davlat bo'lib¹², ularning orasida eng ko'p sonligi 汉 han millati bo'lgan. Biz han millatini xitoy millati deb yuritamiz. Xitoy millatining tili mil. av. 1 mingginchi yilning o'zidayoq ko'p shevalarga ega bo'lgan¹³. Shuning uchun xitoylar, bu shevalar orasidagi eng namunali shevani asos qilib, yangi standartlashgan nutqni yaratishgan va o'sha davrdagi adabiyotlarni o'qishgan. Masalan, 孔子 Konfutsiy^{14 15} davrida yozma adabiyotlar 文言 wenyanda yozilgan, wenyanni o'qish uchun esa o'sha davrda standartga solingan nutq 雅言 yayandan foydalanishgan. Demak, Konfutsiy yashab ijod qilgan davrdagi yozma adabiy til wenyan bo'lsa, uning og'zaki talaffuzi yayan demakdir. " 辞海 Ci hai "¹⁶ da yozilishicha, "Yayan qadimiy aloqa vositasi, namuna bo'la oladigan sheva, ya'ni o'sha davrning adabiy tilining talaffuzi darajasiga yetgan shevasi hisoblanadi. Yayan qadimgi adabiy tilning og'zaki nutqi bo'lib, hozirgi 普通话 putonghua¹⁷ ga to'g'ri

¹² Xitoy Xalq Respublikasida 56ta millat bo'lib, ulardan 55 tasi kam sonli millatlar hisoblanadi.

¹³ O'sha davrlarda qanday shevalar bo'lganligi haqida ma'lumotlar bizning ixtiyorimizda yo'q. Shuning uchun bu mavzu maxsus izlanish talab etadi.

¹⁴ Buyuk mutafakkir, ma'rifatparvar, faylasuf, maorifparvar Konfutsiy mil. av. VI, V asrlarda yashab o'tgan.

¹⁵ Biz BMIda 孔子 Kongzini Konfutsiy nomi bilan atadik.

¹⁶ " 辞海 ci hai ", Shanhay, 2008-y, 1-jild, 509- b.

¹⁷ 普通话 Putonghua atamasi 1955- yilda yozuv islohotlari bo'yicha umum Xitoy kofirensiyasida qabul qilingan.

Ushbu kofirensiyada xitoy tilining eski nomi bekor qilindi, so'ng 普通话 Putonghua Xitoyning adabiy tilining og'zaki nutqi deb e'lon qilindi.

keladi”.

Yayan m. av. VII, VI asrdan to milodiy III asrgacha (jami 10 asr atrofida) muomilada bo'lgan va uning asosini shimoliy sheva tashkil etgan. Fikrimiz dalili sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz.

Xitoyning taniqli tilshunosi 孔颖达 Kong ying daning¹⁸¹⁹ “Zheng wen” kitobida yayan haqida quyidagicha yozilgan:

“雅言，正言也” – Adabiy tilning rasmiy shevasi bo'lgan.

Yayan eng qadimgi og'zaki adabiy nutq bo'lib, Xitoyda ishlatilgan dastlabki adabiy nutqning talaffuzi darajasiga yetgan shevasi hisoblangan. Tarixiy manbalarda u 周 Zhou²⁰ sulolasi hukmronligi davrida, mahalliy sheva asosida shakllangan va rivojlangan.

鲁 Lu sulolasi hukmronlik qilgan davrlarda Kanfutsiy o'z maktabini ochib va ko'plab shogirdlariga ilm bergan. Konfutsiydan ilm olish maqsadida kelgan 3000 dan ziyod shogirdlari Xitoyning turli tomonlaridan Konfutsiydan ilm olish uchun tashrif buyurishgan. Konfutsiy shogirdlariga ta'lim berish jarayonida yayandan foydalangan. Gaplarimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz.

“子所雅言，”诗“，”书“，执礼，皆雅言也。

¹⁸ 唐 Tang sulolasi davrida Chung shui noxiyasida yashagan. Haqiqiy ismi Kong Da . O'sha davrda ko'zga

ko'ringan Konfutsiyshunos olim bo'lgan va shu bilan birga yirik ieroglifshunos va tilshunos bo'lib, 反切 fan qie ustida ish olib brogan olimlardan biri bo'lgan.

¹⁹ “ 辞海 ci hai ” Pekin, 1994, II-tom, B.856.

²⁰ 周 Zhou sulolasi (mil. av. XI asr – mil. av. 221-yil). Poytaxti 丰镐 Feng Gao shahri (hozirgi Sian shahrining shimoli- g'arbi).

Konfutsiy “Men tuzgan "sher"("诗"- she'rlar to'plami), "shu" ("书" - tarix kitobi) va "li " ("礼"- urf-odat) kabi kitoblarimni darsda foydalanganimda yayan nutqi asosida o'qiganman va tushuntirganman” degan Konfutsiy.

Shu bilan birga Konfutsiy o'z maruzalarini yayanda o'qigan. Konfutsiyning barcha shogirdlari ham o'zaro aloqada yayandan foydalanishgan. Bundan tashqari Konfutsiyning qator asarlari va o'sha davrdagi ko'plab asarlar yayanda o'qilib, yayanda tushuntirilgan.

Yayanni ilk bor Xitoyning 周 Zhou sulolasi hukmronligi davridagi adabiy asarlarda uchratishimiz mumkin. O'sha davrlarda yayan jamiyatning yuqori qatlami va ta'lim oluvchi o'rta qatlamning nutqi bo'lib, davlat boshqaruvida foydalanilgan adabiy tilning og'zaki nutqi hisoblangan.

Quyidagi keltirilgan Konfutsiyning asarlari²¹ yayanda o'qilgan va tushuntirilgan.

“诗经 Shijing” - (she'rlar kitobi)

“Shijing” kitobidagi she'rlarni to'plash uchun Konfutsiy Xitoyda II-VI asrgacha noma'lum mualliflarning og'zaki va yozma qoldirgan she'rlarini o'zining talabalari bilan qidirib topgan. Shulardan Konfutsiy g'oyasiga muvofiq deb topilganlari, qayta ishlanib bu kitobga kiritilgan, ularning soni 305 ta edi. Bu 305 she'rlar o'z harakterlariga ko'ra quyidagi 3ta guruhga bo'lingan.

1. Guo feng (国风 - beklklarning urf-odatlari)

2.Ya (雅 - qoidalar)

²¹ Konfutsiyning yuqorida berilgan asarlari maxsus o'rganish talab etiladi.

3. Song (颂 - madhiyalar)

Birinchi qismga 160 ta; ikkinchi qismga 105 ta; uchinchi qismga 40 ta she'r kirib, hammasi bo'lib 12356 so'zdan iborat. Guo feng qismidagi she'rlarga asosan ijtimoiy hayotga oid ijodlar kiritilgan. Ya qismida esa lirik hamda sevgi va muhabbatga bag'ishlangan she'rlar to'plangan. Sung qismida esa o'lim marosimlarda yoki tantanali daqiqalarda maqtovg'a sazovor ashulalar bo'lib to'qilgan she'rlar kiritilgan edi. Eramizdan avvalgi 213-yili Konfutsiy ta'limotini o'zining ashaddiy dushmani deb hisoblagan imperator CHing Shi Huanning qilgan qiyinchilik siyosati tufayli bu kitob kuydirilib yuborilgan edi.

Taxminan 100 yil o'tgandan so'ng , ya'ni eramizdan avval II asrda bu kitob olimlar tomonidan qayta tiklangan va unga 毛诗 Mao shi (毛诗 Mao shi tomonidan tiklangan she'rlar) degan nom berilgan. Bu nom XII - asrgacha ishlatilib kelindi. Undan so'ng yana qaytadan “Shijing” deb atala boshlandi. “Shijing” 2000 yildan ko'proq davrda har doim adabiyotshunos va tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib keldi. Bu kitob bo'yicha Xitoyda va jahondagi mamlakatlarda yuzlab maqola va kitoblar chop etildi, shuning bilan bu kitob fransuz, ingliz, rus va boshqa tillarga to'liq yoki parchalari tarjima qilingan.

“礼经 Lijing”-(odob-axloq qoidalari)

Konfutsiyning 3000 dan ziyod shogirdlari bo'lib, ularning ichida yetmishdan ortig'i juda qobiliyatli hisoblangan va Konfutsiyga eng sadoqatli bo'lgan. Ular Konfutsiyning hayot davrida uning talabiga binoan butun Xitoyning yiroq va yaqin hududlariga borib, Xitoy jamiyatida, shu jumladan xonlar va beklar saroyida bor urf-odatlarini yozilmaganini yozib, yozilgan bo'lsa, shularni ko'chirib olib kelishgan ekan. Shularning ichidan Konfutsiy Xitoy jamiyatining ravnaqi uchun o'rnak bo'la oladigan urf-odatlarini to'plab, kitob qilib qoldirgan. Keyinchalik Konfutsiyning

tarafdorlari bu kitobni “Konfutsiyning kanon kitoblari” ning biriga aylantirib, undagi urf-odatlarni Konfutkiy ta'limotining merosiga aylantirishgan. Bu kitob 17 bobdan iboratdir. Ba'zan “礼经 lijing”ni “仪经 yijing” ham deb atashadi.

“易经 Yijing” - (davrlar)

“Yijing” asosan xitoy olimlarining qadimdan dunyoga va tabiat qonunlariga bo'lgan qarashlarini ifodalagan kitobdir. Unda dunyoda bo'layotgan xodisalar “ yan ” (阳-yorug'lik), “ yin ” (阴-qorong'ulik) qoidalariga bo'y sunadigan falsafani olg'a suradi. Shuning bilan birga bu kitobda qadimgi Xitoy xonlar saroyida o'z vaqtida ishlatilgan folbinlik sistemasini batafsil izohlashga uringan. Bu kitob nafaqat falsafa nuqtai nazaridan o'quvchilarga qiziqarli, balki tilshunos va ieroglifshunoslar uchun ham qiziqarlidir. Chunki undagi folbinlikda ishlatilgan geksagramma belgilari ustida ko'pgina olimlar urinishmoqda. Bu kitob Konfutsiy tomonidan tuzilgan deb aytishadi. Shuning uchun u Konfutsiyning beshta kitoblaridan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin olimlar tekshirishicha, undagi materialning ko'pi eramizdan avvalgi VIII - VII asrlarda yozilgan. Konfutsiy esa ularga aniqlik kiritib, qayta ishlab chiqqan.”yijing” asari rus va bir qancha g'arb tillariga tarjima qilingan.

“书经 Shujing”- (tarix kitobi)

“Shujing” ning ikkinchi nomi 尚书 shang shu , bu kitob Xitoyning dastlabki tarix kitobidir. Shu bois uni “Xitoyning eng qadimgi tarixi” deb tarjima qilsak hech yanglishmagan bo'lamiz, bu kitobda Xitoy tarixining eng afsonaviy davrlardan xotirlanib, Shang, Zhou sulolalarining podshohlari, keyinchalik shu sulolaning kuchayib ketgan bek va xonlarining oliy farmonlari, notiqarning bayonlari, ularning

qilgan harbiy yurishlarini yozgan. Umuman bu kitobda Xitoyning ibtidoiy jamoasidan tortib eramizdan avvalgi VI asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

Konfutsiy o'z davrida bu kitobni olib, uni qaytadan ishlab tahrirlab chiqqan. Kitob Konfutsiyning qalamidan so'ng aytishlaricha, 58 bobdan iborat bo'lgan. Lekin Ching Shi Huandi Konfutsiyning bu kitobini ham boshqa kitoblari bilan birga kuydirtirgan. Sharqiy Han imperiyasi davrida, Konfutsiyning meroslarini qayta tiklash jarayonida bu kitob Ching Shi Huandining yirik olimlaridan biri 伏生将 Fu Sheng Jiangning uyining devorlaridan topilgan nusxasidan qayta tiklangan. Bu nusxa 28 bobdan iborat bo'lgan. Chunki suvoq qilingan devorlarda uzoq yotgan bu kitobning qolgan boblari chirib ketgan. Keyinchalik bu kitobning topilgan yana bir bobi bilan qaytadan tiklangan “Shjing” yigirma to'qqizin bobdan iborat . Uni 令文 尚书 Jing Weng Shang Shu deb ataydilar. “Bugungi 尚书 Shang shu” paydo bo'lgandan so'ng Xitoy tilshunosligi tarixida “Shi Jing” ning qadimgi nusxasini qayta to'liq ishlashga urinishlar ko'p bo'ldi. Lekin maqsadga yetolmaganlar, shunga qaramay Konfutsiyshunoslar ko'pincha bugungi “尚书 shang shu” ga ishonch bilan qaraydi va bu kitob Konfutsiyning tahlilidan o'tganligi uchun, uni Konfutsiyning “beshta qonun” kitoblarining bittasi deb hisoblaydi.

“Shi jing” ko'pgina chet el tillariga shu jumladan rus tiliga ham ag'darilgan.

“春秋 Chunqiu”- (bahor va kuz)

“Qunqiu” bu yilnoma Zhou sulolasi davridagi 鲁 Lu xonligining²² 240 yillik tarixi yozilgan kitobdir. Xitoy xalqining buyuk mutafakkiri , pedagog Konfutsiy

²² Xitoyda 鲁 Lu xonligi mil. av. 722yildan 481-yilgacha hukmronlik qildi.

o'zining o'qituvchilik faoliyati jarayonida bu kitobni o'quv quroli sifatida foydalangan. Konfutsiyning muxlisilaridan bo'lgan qadimgi Xitoyning buyuk faylasuflaridan biri 孟子 Meng Zi²³ o'z asarlarida bu kitobni Konfutsiyning ijodi deb takidlagan, lekin bir necha olimlarning tekshiruv ishlari natijasida, bu asar Konfutsiy qalamiga mansub emas, balki u faqat tahrir qilgan degan xulosaga kelganlar. Lekin shunga qaramay bu asarni hozirgi zamon xitoy xalqi ham Konfutsiy ijodiga mansub bo'lgan beshta muqaddas kitoblarning biri deb hisoblaydi. Bu kitob xitoy xalqining bir necha ming yillik e'tiboriga sazovor bo'lgan va hozirgi vaqtda ham o'z qadrini yo'qotmagan qadimiy manbalardan hisoblanadi. Shu jumladan tilshunoslarning diqqat markazida, ular bu kitobni lingvistik nuqtai nazardan o'rganib kelganlar. Ayniqsa ierogliflarning tuzilishini, so'z ma'nolarini va boshqa tomonlarini ifoda etib, hozirgi zamonda Xitoyda foydalanilayotgan bu kitobning nusxasini, xitoy olimlarining tasdiqlashlaricha shaxsan Konfutsiy tomonidan tahrir qilingan nusxasi deb hisoblaydilar. Kitobning hajmi 17 ming ieroglifdan (so'zdan) iboratdir.

1-2. 通语 Tongyu

Tongyu umumtushunarli va keng qo'llanilgan adabiy nutqning talaffuzi bo'lib, u mil. II asrda vujudga kelgan va yayanning o'rnini bosgan. Biroq tongyu mazmunan yayanni anglatgan. Tong yu Xitoyning shimoli qismida keng qo'llanilgan sheva hisoblanib, u Xitoydagi boshqa shevalarga nisbatan namunali va umumtushunarli sheva bo'lgan. U shimoliy shevaning pekin shevasiga asoslangan va boshqa shevalarga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, uni bilganlarning faoliyati, boshqa

²³孟子 Meng zi taxminan mil. av. 372 va 289-yillarda yashagan.

shevalarni bilganlarga qaraganda kengroq bo'lgan. Tong yu 汉Xan²⁴, 唐 Tang²⁵ va 宋 Sun²⁶ sulolalarining hukmronlik qilgan davrlarida yuqori mansabdorlar va ziyolilar tomonidan qo'llanilgan. Davlat boshqaruvidagi ishlarni olib borishda ham shu nutqda talaffuz qilingan. Shu tufayli ham, bu sheva o'sha davrda adabiy tilning nutqi darajasiga yetgan. Tong yu atamasi 汉 Xan sulolasi hukmronlik qilgan davrlarda ijod qilgan olim 杨雄 Yang Xiongning “方言fang yan” – “shevalar” kitobida uchraydi. Yang Xiongning “fang yan” kitobida tongyu ba'zida 凡语 fanyu deb ham nomlangan²⁷.

Tongyuni o'sha davrlarda adabiy nutqning talaffuzi darajasiga yetishiga asosiy sabab, poytaxtning madaniyat va san'at markazi ekanligi, savdo-sotiqning rivojlanishi va ko'plab sohalarning Xitoy bo'ylab tarqalishidir. Barcha sohalarni rivojlantirishda Xitoyliklarga adabiy, ya'ni umumtushunarli nutq zarur bo'lgan.²⁸

Quyidagi keltirilgan asarlarda tongyu haqida va uning tovush talaffuzlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

“方言 Fang yan”-(shevalar)

Xitoy tilining birinchi “方言 fang yan-shevalar” lug'atining muallifi 杨雄 Yang Xiong g'arbiy Xan sulolasining oxirgi davrlaridagi atoqli shoir, olim imperator Vang Mang hukmronlik qilgan davrida davlat maslahatchisi lavozimida ishlagan. Bu asarni yozish jarayonida Yang Xiong mamlakatning har xil shevalarda gapiradigan

²⁴ Xitoyda 汉 hanlar sulolasi mil. 206-220 yillarda hukmronlik qilgan.

²⁵ 唐 sulolasi 618-907 yillarda hukmronlik qilgan.

²⁶ 宋 sun sulolasi 960 (960)-1279-yillarda hukmronlik qilgan.

²⁷ 实用普通话培训教程”，山东，2004，6 页。

²⁸ www. Baidu.com.

xududlariga borib, shaxsan o'zining kuzatishlari natijasini va ko'pgina klassik asarlarni o'qib, undan chiqqan jumlar asosida yaratilgan bu kitobni yozishda u 27 yil umrini sarf etgan. Zhin sulolasi tomonidan bu lug'at o'rganilib chiqib, zamon talabiga mos ravishda uni izohlar bilan to'ldirdi. Bu kitobni “方言注 fang yang zhu - fang yang izohi” degan nom bilan chop etishdi.

“四声谱 Si sheng pu “– (to'rt ohang notasi)

“Si sheng pu” ning muallifi 沈约 Shen Yue , u 441-yili tug'ilib, 513-yili vafot etgan. 德清 De Qing uyezdida kambag'al oilada dunyoga kelgan. U bolaligidan tirishqoq, bilimga chanqoq, intiluvchan bola bo'lgan. Kamolot yoshiga yetganda u shu davrdagi yirik olimlar qatoriga qo'shilgan. Undan tashqari, u hayoti davomida janubiy Xitoyda ketma-ket taxt tepasiga kelgan uchta sulolaning ya'ni 宋 Song, 齐 Qi²⁹, 梁 Liang³⁰ fuqorosi bo'lib o'tgan. Bu sulolalar davridagi madaniyat va san'at dunyosida Shen Yue yirik mutafakkirlardan biri bo'lgan. U o'zining she'rlari bilan muxlislarini lol qoldirgan. Bundan tashqari musiqa va xitoy tilining fonetikasi bilan ham shug'ullangan. Qi va Liang sulolasi davrida u gubernator lavozimlarida ishlagan. “Si sheng pu” kitobini olimlarning aytishicha, Shen Yue o'zining hayotini so'nggi yillarida yozib tugatgan. Bu kitob bo'yicha har bir xitoycha so'zning bo'g'inlari to'rtta ohangga ega ekan va bu ohanglarga u to'rtta belgi, har biriga nom bergan. Birinchisi “ – “ (birinchi tovush); ikkinchisi “ / ” (ikkinchi tovush) ; uchinchisi “ v “ (uchinchi tovush) ; to'rtinchisi “ \ “ (to'rtinchi tovush)lardan iboratligini isbotlab bergan. Masalan, bir xil bo'g'inda ya'ni, “ dao “ bo'g'inida har xil yoziladigan, har xil ma'no beradigan “ 刀 - dao“ (pichoq); “ 倒 -

²⁹齐 Qi sulolasi 479- 502- yillarda Xitoyda hukmronlik qilgan suloladir.

³⁰梁 Liang sulolasi Xitoyda 502- 557- yillarda hukmronlik qilgan.

dao“ (topmoq); “导 - dao“ (boshqarmoq); “盗 - dao “ (o’g’irlamoq) to’rt hieroglif to’rt ohangda kelar ekan, birinchi “刀 - dao “ – birinchi ohangda , ikkinchi “倒 - dao“ – ikkinchi ohangda , uchinchi “导 - dao “ – uchinchi ohangda, to’rtinchi “盗 – dao” – to’rtinchi ohangda . Bu ohanglarning tovushlari odatda musiqada qabul qilingan yetti tonning birinchi to’rt tonlarining jaranglashiga to’g’ri kelar ekan. “四声谱 Si sheng pu” kitobi bizgacha yetib kelmagan, uning parchalari va uning to’g’risidagi ma’lumotlar “Liang sulolasining tarixi” kitobining “Sheng Yuening tarjimai holi” va “隋 Suy sulolasi tarixi” kitobining “qadimgi kitoblar” bo’limlarida yozib qoldirilgan.

“唐韵 Tang yun”

“Tang yun” ning tarjimasi “唐 Tang sulolasi davrida tuzilgan ohangi va talaffuzi berilgan lug’at” degan ma’noni anglatadi. Buning muallifi ushbu davrda yashab ijod qilgan 孙免 Sun Mian³¹ bo’lgan. Qadimgi manbalarda yozilishicha Sun Mian o’z davridagi fonologiya sohasida yirik olim bo’lgan, bundan tashqari u 陈注 Chen Zhu viloyatining qozisi lavozimida ham ishlagan. Tang sulolasi hukumati 676-yili lug’at tuzishni olimlarga uzoq yillar davomida qilgan mehnat natijasi Sun Mian tomonidan ko’rib chiqilib va 751- yili bu lug’at o’zining maromiga yetkazilib, shu davr ya’ni Tang sulolasini hukmdori Siun Zunggaga taqdim etilgan. Olimlarning xulosasiga qaraganda, bu lug’atning asosiy manbasi “QieYun” lug’ati bo’lib, tuzilishi ham bir xil bo’lgan. 2008-yili Pekinda topilgan yozuvlari aniq bo’lmagan, ko’p joylari o’chib ketgan va 40 sahifadan tashkil topgan. “Tang yun”

³¹孙免 Sun Mianning tug’ilgan va o’lgan kunlari aniq emas.

ning qoldiqlari ming afsuski, bu lug'atning asl va keyinchalik chop etilgan nusxalari ham bizgacha yetib kelmagan. Lug'atning asl nusxasi "Qie yun" lug'ati kabi beshta bobdan iborat bo'lgan.

1-3. 官话 Guan hua

Markazlashgan Xitoy davlati vujudga kelgandan so'ng, uning xududi o'n marotaba kengaydi. Biroq lingvistik rivojlanish davlat xududining kengayishiga tenglasha olmadi. Dastlab lingvistik rivojlanish Shimoliy Xitoyda boshlangan, chunki Xitoy xududining kengayishi shimoldan janubga qarab borgan.

Birlashgan Xitoy imperiyasi amaldorlari turli sabablar bilan poytaxtga tashrif buyurishgan. Buning asosiy sababi, imperator saroyining poytaxtda joylashganligi va poytaxt madaniyat va san'at markazi ekanligi, shu bilan birga poytaxt iqtisod va siyosat mazrkazi ham bo'ganligidir. Amaldorlarning bu tashriflarining boisi, iqtisod va siyosat borasida turli muammolarni hal qilish edi. Yuqoridagilarning barchasi poytaxt shevasining obro'sini oshirgan. Shu shevada so'zlashuvchilarning ko'pchiligi amaldorlar bo'lgan. VIII asrdan boshlab Pekin Xitoyning poytaxtiga aylantirilgan. Shuning uchun, Pekin shevasi tub aholining va chetdan keluvchilarning ta'sirida shakllangan va bu sheva boshqa shimoliy Xitoy xududida yashovchilarning shevalaridan farq qilgan, chunki poytaxt shevasi o'zgacha bo'lib, hamma amaldorlar shu shevada so'zlashganlar. Manjurlar bosqinidan so'ng Pekin shevasining ahamiyati yanada oshgan va bu sheva adabiy nutqning talaffuzi darajasiga yetgan. Shu bilan birga Manjur amaldorlari bu shevadan boshqa shevada

soʻzlasha olishmagan. Ular davlat ishlarida ham faqat poytaxt shevasidan foydalanishgan. Bularning barchasi Pekin shevasining obroʻsini oshirgan. Poytaxt shevasining obroʻsini oshishiga manjurlarning taʼsiri katta boʻlgan. 官话 guan huani bilish bu amaldorlar nutqini bilish demakdir. Bu nutqni bilish shaxsiy amaldorlarga, qaysiki bir yerdan boshqasiga koʻchib yuradigan savdogarlarga katta foyda keltirgan.³²

Amaldorlar nutqi pekin shevasi bilan toʻliq mos kelmasada, biroq guanhua talaffuzi pekin maktablarida oʻqitiladigan asosiy nutq boʻlgan. Xitoy hukumatida ishlaydigan amaldorlarning farzandlari, 8 bayroq qoʻshiniga tegishli amaldorlarning farzandlari obroʻsi yuqori boʻlgan maktablarda taʼlim olishgan. Bu maktablarda fonetikaning eng bilimdon oʻqituvchilari oʻquvchilarga taʼlim berishgan. Ular Xitoy yozuvining toʻgʻri oʻqilishini 反切 fanqie fonetik lugʻatlari yordamida oʻrgatgan. Umuman olganda oʻsha maktablarda ieroglif oʻqilishi Pekin shevasiga yaqin boʻlgan, lekin uning baʼzi farqlari ham mavjud edi va shu farqlar orqali odamlarning ilmiy yoki ilmsizligini aniqlash mumkin boʻlgan.

Ammo guanhuaning grammatik va leksikasining alohida tasviri, bir soʻz bilan aytganda, pekin shevasining standart tasviri yoʻq edi. Pekinning tub aholisidan tashqari boshqalar uchun bu sheva ona tili boʻlmagan. Shuning uchun, baʼzi soʻzlar grammatik va leksik jihatdan shu tilda soʻzlashuvchilarda farq qilgan. Bu farqli laxjalarning nomi 蓝官话 koʻk guanhua, qaysiki pekin va boshqa shevalar tasirida shakllangan sheva. Bu shevalar Si Chuan, Shansi va Xebeylarda qoʻllanilgan, shunday qilib guanhua oʻrta asrlarda Xitoyning barcha laxjalari taʼsirida shakllangan.

³² Софронов.М.В.В. Китайский язык и китайский общество. М.:2009. С. 327.

Lekin Xitoyning 清 Qing sulolasi³³ hukmronligi davrida barcha amaldorlar guanhuada soʻzlasha olishmagan. Janubiy provinsiyalardan kelgan amaldorlar, poytaxt shevasini umuman bilishmagan. Imperator Yun Zheng Fu Jiangdan kelgan amaldorlarning soʻzlagan soʻzlarini umuman tushuna olmaganligidan jahli chiqqan va barcha davlat amaldorlari bir tilda, yaʼni bir nutqda soʻzlashishlari uchun guanhuani butun Xitoyga keng yoyishga eʼtibor qaratgan. Janubda yashaydigan amaldorlar shimolda yashaydigan amaldorlardan guanhuani yomonroq bilmasliklari uchun Guang Dun va Fu Jianglarda guanhua maktablarini joriy etgan. Yun Zheng oʻylaganki, hieroglif oʻqilishining pekincha talqini, shu maktab oʻquvchilari uchun guanhuada toʻgʻri soʻzlashishlariga imkon beradi. Uning tasavvurida, “Xitoy tilining barcha shevalarining grammatikasi va leksikasi bir xil boʻlganligi uchun, faqat pekincha talaffuz guanhuada toʻgʻri soʻzlashuvga olib keladi”.

Toʻgʻri talaffuz maktablari ikkala provinsiyada XIX asrgacha mavjud boʻlgan, biroq bu maktablarda oʻrganilgan pekincha oʻqilish ham oʻquvchilarning guanhuani bilishiga olib kelmagan, lekin guanhuani tarqalishi butun Xitoyga katta tasir oʻtkazgan va u hozirgi kungacha mavjud.

XIX asrda yaʼni isloxotlar davrida Qing dinastiyasining qulash davrida hukumatdagilar guanhua nutqini bilishi shart boʻlgan. 1907 – yilda 明 Ming sulolasi³⁴ hukmronligi davrida Xitoy Vazirligi guanhuani oʻrta maktablarda oʻqilishini joriy etgan. Shu proektning muhokamasida Jia Jiang bu nutqni 国语 guoyu deb nomlash taklifini kiritgan. Uning adabiy tilning nutqi ekanligini eʼtirof etish uchun adabiy tilning shakllanishi adabiy talaffuz shakllanishidan boshlanganligini aytib oʻtgan. Shu maqsad bilan amalga oshirilgan tadbir 1914–yil 15–febralda amalga oshirilgan. Bu konfirensiyada milliy talaffuzning Xitoy

³³ 清 Qing sulolasi 1644-1911-yillarda hukmronlik qilgan.

³⁴ 明 Ming sulolasi Xitoyda 1368-1644-yillarda hukmronlik qilgan.

alfabitining 注音字母 Zhuyinzimusi shakllantirilgan.

“中原音韵 zhong yuan yin yun”

“Zhong yuan yin yun” nomli lug’atni tuzgan shaxs o’z davrining taniqli dramaturgi 周德清 Zhou Deqingdir³⁵. Dramaturgiyada qo’yiladigan pyesalar, hamda aytiladigan ashulalarni to’g’ri talaffuz qilish maqsadida lug’at tuzilgan. Lug’at ikki qismga bo’lingan: birinchi qism odatda ko’p ishlatiladigan 5866 ta hieroglif talaffuzini bergan, ikkinchi qismi nazariy qism bo’lib, talaffuzning har xil muammolariga to’xtalgan. Lug’at dramaturgiyada ishlatiladigan so’zlarning to’g’ri talaffuziga mo’ljallangan bo’lsada, lekin bu ohangli va talaffuzli kitob, ohang va talaffuzni berganda shimoliy shevaga asoslangan bo’lgani uchun u bizga bebahodir. Chunki biz bilamizki hozirgi vaqtda shimoliy sheva Xitoy shevalarining ichida “namunali sheva” bo’lib hisoblanganligi sababli ham shu shevani tarixiy tomondan o’rganishga katta yordam qiladi. “中原 zhong yuan” ning tarjimasi “shimoliy xitoy tilining ohang va tovushlari” deganidir. Bu kitob 1324 – yili nashr qilingan. Lug’atda Xitoyning shimolidagi shevalarga izoh berib, so’zlarni ohang va tovushlari shimoliy shevaning normativi bo’lgan pekin talaffuzida bergan.

“洪武正韵 Hong wu zheng yun”

“Hong wu zheng yun” imperator Zhun Gu davrida qo’llanilgan shevalar lug’ati hisoblanib, Ming sulolasi hukumati qaroriga binoan 乐韶风 Le Sha Fengning raisligida o’n besh olimdan iborat bo’lgan guruh tomonidan tuzilib, 1375- yili chop etilgan. Bu lug’atda Janubiy Xitoyda yashaydigan 汉 Han tilida gapiradigan aholining shevalarini, undagi tovushlarini bergan va ularning ma’nolarini qadimgi

³⁵周德清 Zhou Deqing 1277 –yili tug’ilib, 1365 yili vafot etgan.

davrda hamma tushunadigan “雅言 yayan “ nutqining (adabiy tilning nutqi)³⁶ talaffuzini ham izohini bergan.³⁷

“字汇 zi hui”

“Zi hui” Ming iperatori Ming Shen Zung³⁸ davrida kitob bo’lib yozilib, 1615-yili nashrdan chiqadi. Bu lug’atning muallifi 梅胤祚 Mei Yin Zuo lug’at tuzishda asosan “Shuowen jiezi” lug’atining tuzilishini qabul qilgan bo’lsada, u bir qancha yangilik ham kiritgan. Birinchidan lug’atdan ieroglifni qidirish jadvalining ichida ierogliflarni qidirish uchun bo’laklarni, agarda “shuowen jiezi”da 540 bo’lsa, bu lug’atda 214 taga tushurgan. Bu bo’laklarning birortasiga kirmaydigan ierogliflar bo’lsa, ularni yig’ib, o’z oldiga alohida jadvalini kiritgan va ularning hammasini imlo chizig’ining soni bilan, ya’ni avval imlo chizig’i kamini, keyin imlo chizig’ining ko’pini qo’yib chiqadi. Bu usuldan keyinchalik Qing sulolasi davridagi olimlar foydalanganlar. “Zi hui” lug’ati 33 ming 179 ieroglifdan iboratdir.

1-4. 国语 Guoyu

XX asrning boshlariga kelib Xitoyda yangi guoyu atamasi paydo bo’ldi. Guo yu atamasi zamonaviy adabiy tilning og’zaki nutqini butun mamlakat bo’ylab tarqalishini belgilaydi. Ba’zi olimlarning fikricha, bu atama yapon kokugo³⁹ atamasiga to’g’ri kelib, bu Yevro’pacha o’zlashma so’zni anglatadi. Birinchi marta guoyu atamasi barcha provinsiyalar talabalarining Shanhaidagi birlik dasturida

³⁶ 雅言 ya yan hozirgi adabiy tilning og’zaki nutqi 普通话 putonghuaning qadimda aytilishi.

³⁷ Bu lug’at haqida batafsil ma’lumotni Vang Li yozgan “Han yu yiyuan xue” kitobining 505-513- betlariga qarang.

³⁸ Ming Shen Zung 明神宗 1573- 1620- yillarda imperatorlik qilgan.

³⁹ Kokugo atamasi xitoy tilidagi guoyu ma’nosini anglatgan. Uning ma’nosi davlat tilidir.

uchragan bo'lib, u 1906-yilda tashkil topgan va unda boshqa masalalar bilan bir qatorda, har bir provinsiyada og'zaki tilda jurnal va gazetalar nashr etishni ko'zda tutgan va barcha provinsiyalar shevalarini birlashtirish uchun xalqqa guoyu nutqini o'rgatishni joriy etishgan, ya'ni jurnal va gazetalarini guoyuda o'qishga undaganlar. Biroq guoyu atamasining tarjimasi bilan bog'liq ba'zi qiyinchiliklar mavjud. O'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda guo mamlakat, yu til ya'ni nutq ma'nosini anglatadi. Qiyinchilik guo so'zidadir. Uning ma'nosi yetarlicha aniq, bu davlat tashkiloti, lekin Yevro'pa tillariga tarjima qilinganda osonlik bilan ikkita ma'no kelib chiqayapti. Chunki ko'p Yevro'pa tillarida guo so'zi nationga to'g'ri kelib, u odamlar birlashmasi shakli va davlatning millatini bildiradi. Bu kelib chiqqan ikkita ma'no bir millatli, bir tilda so'zlashuvchi davlatlarga tegishli bo'lganda, uncha ahamiyatga ega emas. Lekin millati va davlatchiligi o'rtasida farqi bo'lgan mamlakatlar uchun qo'llanmaganligi ma'qul.

Guoyu atamasi davlat tili, ya'ni davlat nutqi ma'nosini anglatib, u davlat boshqaruvida ishlatilgan. Uning asosiy vazifasi davlat hududida millatlararo muomilani ta'minlash. Guoyu so'zi millat tili sifatida chet tillaridagi qonuniy tarjimalarda ma'nosi aniq emas, chunki uning davlat tili sifatida bajaradigan vazifalari inobatga olinmagan. Shuning uchun, bu atama bilan foydalanganda, uning aniqroq ma'nosini nazarda tutish kerak.⁴⁰ “Xitoyliklar milliy tili “ va “ Xitoyning davlat tili “ . Guoyu atamasining keyingi tarixi guanghua og'zaki tilining nutqi o'rta maktablarda o'qitilishi loyihasi bilan bog'liq. Guanghua adabiy tilining nutqi o'rta maktablarda o'qitish Xitoyda demokratizatsiya islohotlarini o'tkazilishida umumxalq talablariga binoan, Xitoyning Xalq Ta'lim Vazirligi tomonidan 1907-yildagi dasturida aks ettirilgan. Shu dasturga binoan, 1916 – yilgacha guanghua darslari shahar maktablariga tatbiq etilishi zarur bo'lgan. O'sha yildan guanghua imtihoni hamma maktablarda majburiy bo'lib, guanghua imtihoni

⁴⁰Софронов.М.В.В. Китайский язык и китайский общество., М.:1979. С 94.

bitiruv imtihonlari qatorida, o'qituvchi lavozimiga erishish uchun ham majburiy hisoblangan.

Xujjatlarda adabiy nutq guanghua an'anaviy nomini olgan. Bu nomga qarshi bo'lgan kengash a'zosi Zhuang Jiang⁴¹ Ta'lim Vazirligiga qarshilik ko'rsatgan: "Har bir narsa uchun to'g'ri nom kerak", chunki guang huaning so'zma-so'z tarjimai amaldorlar nutqini anglatar edi. Bu til esa boshqa fuqorolar uchun to'g'ri kelmasligini nazarda tutgan edi Zhuang Jiang. "Biz guang huani demokratik ma'noni keltirib chiqaruvchi boshqa kengroq atamaga almashtirishimiz kerak va janob Vazir biz bu atamani almashtira olish yoki almashtira olmaslikni bilishimiz zarur" degan edi Zhuang Jiang. Shundan so'ng guoyu birinchi marta davlat tili ya'ni davlat nutqi sifatida davlat hujjatlarida aks etgan. Lekin uning ichki mazmuni o'zgarmagan va u adabiy tilning ag'zaki normativ nutqi hisoblangan.

Shu tarzda guoyu atamasi paydo bo'lgandan so'ng ko'p ma'noni anglatgan. U umumdavlat og'zaki tilining talaffuzini anglatib, shevalarni hisobga olmasligini nazarda tutgan. Talabalar birligi dasturi kabi shimoliy Xitoyning guoyuyi pekin shevasiga asoslangan. Zhuang Jiangning izlanishlari bo'yicha ierogliflar pekin shevasining orfoepik me'yorida o'qitilar edi, lekin unga to'liq mos kelmas edi. Shu atamaning oxirgi tushunchasini 1911-yilidagi xujjatlarda va adabiyotlarda uchratish mumkin. Guoyuning lingvistik farqlanishiga qaramay uning jamoat vazifalaridagi o'rnini bir ovozdan maqullandi.⁴² "Davlat tili bu butun mamlakatga tarqalgan zamonaviy shevalarning o'rnini bosadigan, maktabda o'qitilishi orqali tarqaladigan nutqdir. Bu jarayonda davlat tili ya'ni davlat nutqi oldin mustaqil fan sifatida o'qitilib, keyinchalik butun dars o'qish jarayoni shu tilda olib borilishi kerak ". Bu fikrning barchasi hozirgacha saqlangan.

Til qurilish muammolari shu asrning dalzarb muammolaridan biri bo'lib, juda katta ahamiyatga ega . Xitoy an'anaviy filologiyasi bunga tayyor emas edi, chunki

⁴¹ Zhuang Jiang o'sha davrda xitoy yozuvini isloh qilish talabgorlarining ko'zga ko'ringan vakili bo'lgan.

⁴² "实用普通话培训", 山东, 2004, 7 页。

zamonaviy nutqning o'rganilishi bilan hali shug'ullanilmagan edi. Xitoy tilining ko'plab shevalari nafaqat o'rganilmagan, balki inobatga ham olinmagan edi. Shuning uchun adabiy tilning nutqini shakllanishi uchun davlatning lingvistik vaziyatini o'rganish kerak edi. Shu vazifani qiyinchiligini inobatga olib, Vazirlar Mahkamasi vaziyatga, to'g'ri chora qo'llagan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 反切 fan qie fonetikasi lug'atlarga asoslangan ierogliflarning o'qilishini taminlab bera olmagan. Shuning uchun, butun davlatda ierogliflarni bir xil o'qilishi me'yorlarining tatbiq etilishi, adabiy tilning og'zaki talaffuzini shakllanishiga zamin yaratdi. Xitoy ierogliflarining yozilishi, shu ierogliflarning qay darajada bir xil o'qilishini ifodalamasligi sababli, shu yozuv ierogliflarini ta'minlab beruvchi maxsus yozuv kashf etilishini talab qilgan.

Shu maqsadga erishish uchun birinchi qonuniy tadbir, ierogliflarni bir xil o'qilishiga bag'ishlangan konfirensiya bo'lib o'tdi, bu konfirensiya Xitoy Xalq Respublikasining Ta'lim Vazirligi tomonidan 1914 yil 15-fevralda o'tkazilgan. Konfirensiyada zamonaviy Xitoy shevalarining fonetikasi muhokamaga qo'yilgan. Uzoq baxslardan so'ng fonetik me'yor qabul qilingan va u shimoliy shevalarga asoslangandi, lekin fonetikasining me'yori pekin laxjasiga asoslangandi. Bu muzokaraning amaliy natijasi bo'lib “注音字母 Zhuyin zimu” alifbosi vujudga kelgan.⁴³ Zhuyin zimu adabiy tilning yozma shaklining talaffuzini chiqarish uchun 1955-yilgacha xizmat qildi. Undan so'ng ular piyin zimuga o'tishgan. Lekin gouyu atamasining o'rnini putonghua bosdi va shu bilan birga guoyu davlat tili ma'nosida qoldi.

1-5. 普通话 Putonhua

1840-yildan so'ng Xitoy jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarda vujudga kelgan siyosiy inqirozlar jamiyatda nutq jabxalariga sezilarli ta'sir o'tkazgan. 1919-yil

⁴³ Софронов.М.В.В. Китайский язык и китайский общество, М.:1979. С.225.

“ 4-may xarakati ”⁴⁴ misolida buning yaqqol ifodasini ko’rish mumkin. Ya’ni bu davr wenyanni o’rniga baihua kelishi bilan izohlanadi⁴⁵. Shu bilan birga Xitoy tilini oldida turgan muammolarni g’arb tillaridan farq qilishligi, ya’ni murakkabroq ekanligini takidlab o’tish lozim. Sababi, Xitoy tilida yozuv turlarini og’zaki nutq bilan yaqinlashtirish masalasidan tashqari, adabiy tilni standartlashtirish, u bilan bog’liq muammolarni yechimini topish talab etiladi. Bu jarayon ierogliflar murakkabligi, miqdor jihatidan ko’pligi, so’zlarning tovushlarini ifodalashda tafovutlar mavjudligi bilan ham tasniflanadi. Bu esa Xitoy tilini isloh qilishda o’zida uzoq davrni qamrab oluvchi jarayondir.

Ushbu Xitoy tilidagi ierogliflarni isloh qilish masalasi ikki jabxani o’z ichiga qamrab oladi. Buning asosiy ko’rinishlaridan biri ierogliflarni soddalashtirish va mamlakatda putonghuani keng joriy qilish masalasidir. Ierogliflarni soddalashtirish va alifboni tatbiq qilish – yozuv bilan ya’ni baihua bilan bog’liq bo’lsa, 普通话 putonghuani yoyish esa, nutq aspektiga kiradi.

Putonghua Xitoyning adabiy tilining og’zaki nutqi bo’lib⁴⁶, uning kelib chiqish tarixiga nazar tashlansa, Xitoy manbalarida “Putonghua atamasi 清 Qing sulolasi hukmronligi davrida ham mavjud bo’lgan” degan fikrlar e’tirof etiladi. Aniq qilib aytadigan bo’lsak, “putonghua” – ushbu atama 清 Qing sulolasi hukmronligining so’nggi davrlarida, ba’zi tilshunoslar tomonidan qo’llanilgan. Masalan : 1906-yilda 朱文熊 Zhu Wen Xiong⁴⁷ o’zining asarida wenyan va shevalarga muqobil sifatida barcha provinsiyalarda birdek tushunarli bo’ladigan, qo’llasa bo’ladigan “普通话 putonghua” (sodda, oddiy nutq) ni yoyish fikrini ko’targan. Keyinroq esa Li Jing

⁴⁴ 4 – may harakati Xitoy tarixida imperiyaga qarshi qaratilgan yirik qo’zg’alon harakati. U Pekinda talabalar namoyishi bilan boshlangan. Bu harakat Xitoyda marksizm g’oyasini tarqalishini tezlashtiradi.

⁴⁵ 1919-yili 4-mayda butun ziyolilar va studentlar chiqishgan. Ular ko’plab muammolar bilan bir qatorda baihuani keng qo’llashni talab etishgan. Shu yili Xitoy Respublikasi baihuani keng qo’llash haqida qaror qabul qilgan.

⁴⁶ Китайский – русский словарь, М.: 1980, с. 99.

⁴⁷ Zhu Wen Xiong Xitoyning ko’zga ko’ringan, mashhur jurnalistlaridan bo’lib hisoblanadi.

Ci⁴⁸, Chu Qu Bo⁴⁹, Lu Xinlar⁵⁰ o'z asarlarida ham “putonghua” haqida fikrlar bildirishgan.

1949- yil Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topishi munosabati bilan adabiy nutq haqidagi baxs-munozaralar o'zini yangi davriga qadam qo'ydi. 1955-yildagi yozuv islohoti bo'yicha umumxitoy konfirensiyasida “guoyu” (davlat tili) nomi “putonghua” (sodda, umumtushunarli nutq) ga rasmiy ravishda o'zgartirildi. Lekin “putonghua” ning lingvistik ko'rsatkichlari va vazifalari “guoyu” ni anglatardi. Putonghuani rasmiy nutq sifatida umumdavlat miqyosida tarqatilishi 1955-1956-yillardan boshlandi. 1956-yil 10-fevralda putonghuani tarqatish bo'yicha markaziy muvofiqlashtiruvchi qo'mita tashkil qilindi. Xitoy Xalq Respublikasi hukumotining adabiy tilning og'zaki nutqidagi strategiyasi Zhou En Laining⁵¹ lingvistiklar va maorif arboblari bilan birgalikda o'tkazilgan yig'ilishida belgilangan va bu yig'ilish 1958-yil 10-yanvarda bo'lib o'tgan⁵². Bu yig'ilishda Zhou En Lai⁵³ “putonghua” adabiy nutqi Xitoyning kelajakdagi nutqi deb nomlanadi. Biz ham uni tilmi, sheva, nutqmi deyishga ikkilandik. Putonghua haqiqatdan ham shunday bo'lishi uchun, uni mamlakat bo'ylab, reja asosida tarqatishni taklif qilgan. O'sha vaqtda ya'ni 1958-yilda putonghuani tarqatilishining asosiy maqsadi bo'lib, 600 millionlik mamlakat aholisining barcha shevalarini birlashtirish edi. Putonghuani tarqatish uslublaridan biri sifatida, Zhou En Lai boshlang'ich va o'rta maktablarning o'qituvchilarini shu nutqga o'qitishishi, radioda leksiylar olib borilishi va kino filmlar olinishini takidlagan.⁵⁴ Bu usul milliy nutqni tarqatilishi emas, balki shart-sharoitni yaratib berilishi edi. Zhou En Lai putonghuani yuqori darajada bo'lishini takidlamagan va bu nutqni yaxshi bilish shart emasligini ham aytib o'tgan. Putonghua adabiy nutq bo'lib, uni

⁴⁸ Li Jing Ci Xitoy tili ustida ish olib borgan tilshunoslardan biri.

⁴⁹ Chu Qu Bo Xitoyning buyuk yozuvchidir

⁵⁰ Lu Xing Xitoyning sermahsul ijod qilgan adabiyotshunosi.

⁵¹ Zhou En Lai 1898-yili 5-mart kuni Xitoyda tug'ilgan va 1976-yili 8-yanvarda vafot etgan. U Xitoy kumunistik partiyasining a'zosi bo'lib, mislsiz rahbarlardan biri hisoblangan.

⁵² Zhou En Lai “ Tanlangan asarlari ” 2-tom, Pekin, 1984, B.280-294.

⁵³ Zhou En Lai haqida batafsil ma'lumot “新华字典” “Xitoy tilining yangi izohli lug'ati” Pekin, 1987, B.1099-1100.

⁵⁴ Софронов.М.В.В. Китайский язык и китайский общество., М.:1979. С.147.

o'rganishga harakat qilish kerak edi, lekin aholining ko'pchiligi uni mukammal bilishi shart emas edi. Ammo kelajakda barcha shevalar shu nutqqa o'tishi shart edi. Chunki bu han millatining birlashishining eng muhim belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Biroq putonghuaga o'tilgan ilk paytlarda odamlar bilan ko'p muloqotda bo'ladigan kasb egalari putonghuani yaxshi bilishlari zarur edi. Shu guruh tarkibiga tabiiyki, davlat ishchilari, kino va teatr aktiyorlari, radio va televideniya diktorlari, jurnalistlari, oliy o'quv yurtining lektor va o'qituvchilari kirar edi. Bu guruhda qo'shimcha ravishda boshlang'ich va o'rta maktablarning o'qituvchilarini putonghuani bilishi maqsadga muvofiq edi. Shunday qilib Zhou En Laining fikri shundan iborat ediki, putonghua adabiy tilining og'zaki nutqi maktab ta'limi orqali tarqatilishi, uni alohida fan sifatida o'ranilishi zarur edi va maktablardagi barcha fanlar shu nutqda o'qitilishi shart emas edi. Biroq hozirda barcha fanlar putonghuada o'qitilishi shartdir. Ya'na uningcha, adabiy nutq uni o'rganuvchilar uchun belgilangan me'yorlarda o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir, ammo shart bo'lmagan.

Shunday qilib, Zhou En Laining yaxshilab o'rganish takliflari an'anaviy bo'lib, uning fikricha, adabiy nutqni uni o'rganadiganlar uchun deb belgilangan, qolganlar uchun putonghua adabiy nutqining belgilangan me'yorda o'rgatilishi kerak edi.

Hozirgi vaqtda umummilliy nutq statusi konstitutsiyada tasdiqlandi. 1982-yil 4-dekabrda qabul qilingan Xitoy Xalq Respublikasining Konstitutsiyasining 19-moddasida "Xitoy Xalq Respublikasi Putonghua tilini qo'llab – quvvatlaydi va tarqatadi" deyilgan.⁵⁵⁵⁶

Sheva hududlarida putonghuani qo'llash ko'p qiyinchiliklar bilan bog'liq, ularda asosiysi putonghuani bilmaslik yoki talaffuz me'yorlarini yetarli darajada bilmaslik edi. Faqatgina maxsus tayyorgarlikka ega odamlar, o'qituvchilar, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, davlat ishchilari va bir qator soha egalarina putonghuada

⁵⁵“现代汉语”，北京，1984，7页。

⁵⁶“实用普通话培训”，山东，2004，14页。

to'g'ri va xatosiz so'zlasha olar edi. Janubiy provinsiyalarda hali ham ma'lum darajada sheva qo'llanilib kelinmoqda. Agarda yosh yoki o'rta yosh kadr ishchilari putonghuada so'zlashsalar, putonghuaga sheva shu darajada qattiq ta'sir etganki, Pekindan kelganlar ularni qiyichiliklar bilan tushunadilar. Ammo 2001-yili va Xitoy mustaqil davlat bo'lgandan buyon putonghuani butun Xitoy bo'ylab keng tarqatish bo'yicha ko'plab qaror qabul qilingan.⁵⁷

Putonghuani tarqatishning muhim aspekti, putonghuani me'yorlashtirish, uning orfoepik, leksik, grammatik me'yorlarini ishlab chiqish zaruriyati. Ushbu yo'nalishda ko'plab ishlar amalga oshirildi, biroq bu muammo hali hanuz o'z yechimini topgani yo'q. Putonghuani tarqatish bo'yicha xarakat dastlab paydo bo'lgandayoq boshlangan Xitoy ieroglifik yozuv islohoti bilan bevosita bog'liq. Butun mamlakat bo'ylab birlashgan adabiy nutqni shakllantirish va tarqatish masalasi yozuv islohoti uchun adabiy nutqni talaffuzini yozib olish vositasi va uni o'rganish asosi sifatida fonetik alifboni yaratish zaruriyatini vujudga keltirdi. 1954-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Vazirlar mahkamasi qoshida yozuv islohoti bo'yicha qo'mita tashkil qilindi, u 1956-yilning yanvar oyida umumxalq muhokamasi uchun lotin grafikasi asosida Xitoy fonetik alifbosi loyihasi e'lon qilindi.

1958-yil 11-fevralda Pekinda bo'lib o'tgan Xalq vakillarining Umumxitoy kengashini beshinchi sessiyasida yangi Xitoy fonetik alifbosi ya'ni 拼音字母 pinyin zimu qabul qilindi. Bu transkripsion alifbo putonghua talaffuz meyorlari asosida ierogliflar talaffuzini berish uchun mo'ljallangan. Bu bilan mazkur alifbo, Xitoy ierogliflari Xitoy aholisi tomonidan uni o'zlashtirish masalalarini osonlashtiradi.⁵⁸

Xulosa: birinchi bobni o'rganish jarayonida shu xulosaga keldikki,

⁵⁷ Ko'rsatilgan manbaning 156-160-betlariga qarang.

⁵⁸ “现代汉语”北京，1986，6 页.

— Tongyongyu umutushunarli va keng qo'llanadigan adabiy nutq bo'lib, bu atama XX asrning boshlarida xitoy tiliga kiritilgan. Xitoy tilida tongyongyu ma'nosini anglatuvchi beshta atama mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- 1."Ya yan" ("雅言")
- 2."Tong yu" ("通语")
- 3."Guan hua" ("官话")
- 4."Guo yu" ("国语")
- 5."Putong hua" ("普通话")

Bu atamalar turli davrlarda qo'llanilgan adabiy tilning og'zaki talaffuzidir. Bu atamalar talaffuzi va qo'llanish davri turlicha bo'lsada, lekin mazmunan bir xil edi. Bir nutqning kelishi ilgarigisining o'rnini bosishi bilan belgilanar edi. Bu nutqlarning qo'llanilish darajasi qisman chegaralangan bo'lib, faqat putonghua barcha uchun umumtushunarli nutq hisoblangan. Uning qo'llanilish darajasi ham keng bo'lgan. Hozirda uni o'rganish majburiy qilib qo'yilgan. Lekin putonghuadan oldingi adabiy nutqlarni faqatgina ziyolilar, o'rta qatlam va yuqori qatlam mansabdorlarigina o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Lekin bu nutq turlari hozirgi nutq putonghua darajasida mukammal bo'lmagan. Lekin hozirgi putonghuani ham mukammal deb bo'lmaydi. Chunki putonghuaning ustida hozirgacha ko'plab ishlar amalga oshirmoqda va kelajakda ham ko'plab ishlar amalga oshirilishi zarur.

2-bob. 普通话 Putonghuaning fonetik strukturası

Rus olimi Baris Grirorovich Mudrov o'zi bosh muharrir bo'lgan va 1984-yili Moskvada chop etilgan “xitoycha-ruscha lug'atida” umumiy xitoy milliy tilining ya'ni adabiy tilining og'zaki nutqi bo'lgan putonghua atamasiga “putonghua bu adabiy tilningning (ya'ni adabiy tilining J. N.) og'zaki nutqidir” deydi.⁵⁹

Biz birinchi bobdan bilamizki, xitoy adabiy tilining og'zaki nutqini anglatadigan 5 ta atama mavjud ekan. Putonghua esa uning so'nggisidir. Ammo shuni ham aytishimiz kerakki, “putonghua” gacha og'zaki nutqning 4 ta atama davrida bu og'zaki nutqning fonetik tuzilishi o'ziga xos an'anaviy xitoy filologiya uslubida tuzilib, bu zamonaviy talabga to'liq javob bera olmas edi. Shuning bilan birga, bu uslubni o'zlashtirish juda qiyin edi. XIX asrning o'rtalarida Xitoy G'arbiy mamlakatlar tomonidan zo'ravonlik bilan bosib olina boshlandi. Bu salbiy hol bo'lsada, Xitoy dunyodagi eng yirik, taraqqiy etgan davlatlar bilan munosabatda bo'la boshladi. Buning natijasida xitoyliklar dunyoning zamonaviy fan yutuqlari bilan tanishishga va ularni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu jumladan G'arbiy Yevro'paning “lingvistika” (“tilshunoslik”) fanining mazmuni va yutuqlari bilan ham tanisha boshlashdi. Bu hol esa Xitoy Xalq jumxuriyati⁶⁰ qurilgandan so'ng o'zlarining yutuqlarini inkor qilmagan holda g'arbiy tilshunoslik fanining fonetikasiga ijobiy yondashib, Xitoy tilshunos olimlari putonghuaning fonetik tuzilishini bir sistemaga solishni yo'lga qo'ydi.

Putonghuaning fonetik (tovush) tuzilish sistemasi quyidagilardan iboratdir:

⁵⁹ “Китайский-русский словарь”, М.: 1984, с.99.

⁶⁰ XX Jumxuriyati 1949-yil 1-oktyabrda qurilgan.

1. Tovushni chiqarish uchun ijod qilingan alifbosi.
2. Shengmu va yunmu sistemasi.
3. Qo'shib yozish qoidasi.
4. Bo'g'in.
5. Ohang va boshqalar .

2-1. 拼音字母 Pinyin zimu

Putonghuani tarqatish harakatini muhim yo'nalishi, masalasi bu uning me'yorlashtirish muammosidir, ya'ni orfoepik, grammatik va leksik me'yorlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Putonghuani ommalashtirish harakati o'zini paydo bo'lishidanoq xitoy ieroglifik yozuvi islohoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, butun mamlakat bo'ylab yagona adabiy tilning og'zaki nutqini yaratish va uni tarqatish vazifasi "Xitoy yozuvini isloh qilish uchun" harakati oldida milliy talaffuzni yozib olish vositasi va uni o'rganish asosi sifatida fonetik alifboni yaratish zaruriyatini vujudga keltirdi. 1954-yili Xitoy Xalq Respublikasi davlat kengashi qoshida "Yozuv islohot qo'mitasi" tashkil etildi. U 1956-yilning yanvarida umumiy muhokama uchun lotin grafikasi asosida xitoy fonetik alifbo loyihasini nashr etdi.⁶¹

1958-yili Pekinda umumxitoy kengashi xalq vakillarini 5-sessiyasida yangi Xitoy fonetik alifbosi pinyin zimu qabul qilindi. Xitoy fonetik alifbosi, yozuvning mustaqil tizimi emas, balki bu transkripsion alifbosi putonghua talaffuz me'yorlari asosida ierogliflar talaffuzini yozuvda aks ettirish uchun mo'ljallangan. Pinyin zimu maktab ta'limiga joriy etildi, u o'quvchilar

⁶¹ “现代汉语”北京，1986，6 页。

tanishadigan yozuvning ilk tizimi hisoblanadi. Pinyin zimu o'rganilgandan so'ng, xitoy ieroglifikasi kiritiladi.

Pinyin zimuni ommalashtirish uchun Xitoy yozuv islohoti bo'yicha qo'mita risolalar chiqardi. Pinyin zimuning o'ziga xos xususiyati, uning kam sonli millatlar orasida keng ommalashuvini yo'lga qo'yilayotganligidir. Masalan: Ayrim yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish bosqichida turgan kam sonli mayda millatlar tilini 拼音 pinyin⁶² asosida tiklash masalasiga bugungi kunga kelib keng ahamiyat qaratila boshlandi. Ichki Mo'g'iliston va Hei Lun Jiangda o'rta maktab ta'limining quyi va yuqori bosqichlari xitoy tili fonetik transkripsiyasida o'rganiladi. Quyida lotin grafikasiga asoslangan alifbo berilgan.

A a - Aa	B b - B b	C c - C c	D d - D d
E e - E e	F f - F f	G g - G g	H h - H h
I i - I i	J j - J j	K k - K k	L l - L l
M m - M m	N n - N n	O o - O o	P p - P p
Q q - Q q	R r - R r	S s - S s	T t - T t
U u - U u	V v - V v	W w - W w	X x - X x,
Y y - Y y	Z z - Z z		

Yuqorida keltirib o'tilgan alifbo lotin grafikasiga asoslangan bo'lib, quyida bu alifboning harflarini xitoy tilida o'qilishini ya'ni nomlanishini keltirib o'tamiz.

A a - [a]	B b - [be]	C c - [tse]	D d - [de]
E e - [e, ye]	F f - [ef]	G g - [ge]	H h - [xo]
I i - [i]	J j - [ji]	K k - [ke]	L l - [el]

⁶² Sheng mu bilan yun muning tez qo'shib o'qish pin yin deb ataladi.

M m – [em]	N n – [ne]	O o – [o]	P p – [pe]
Q q – [chiu]	R r – [er]	S s – [es]	T t – [te]
U u – [u]	V v – [ve]	W w – [va]	X x – [shi]
Y y – [yo]	Z z – [ze] ⁶³⁶⁴		

Yuqorida keltirilgan alifbo unli va undosh tovushlardan iborat. Shengmu va yunmu ham tovushlar orqali ifodalanadi.⁶⁵ Lotin alifbosi shengmu va yunmu tovushlarini chiqarish uchun asos qilib olingan.

元音 Unli tovushlar

A a, Ee, I i, O o, U u.

Havo oqimining tovush paychalarini titratib, og'iz va tomoq bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramay o'tishi natijasida hosil bo'ladigan tovush, unli tovushdir. Unli tovush xitoy tilida yana “**母音** muyin” deb ham ataladi. Masalan, xitoy tilidagi “**八**” [ba] so'zidagi [a] unlisini talaffuz qilayotganda havo oqimi tomoq orqali o'tib, tovush paychalarini titratadi, til og'iz bo'shlig'ining pastki qismida tekis holatda joylashadi, har bir nutq a'zosi tarang tortilgan holda, muvozanatni saqlagan holda bo'ladi. Havo oqimi og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchramaydi. Xitoy tilida har bir bo'g'in tarkibida unli tovush mavjud bo'lib, unli tovush eng ko'p qo'llaniladigan tovushdir.⁶⁶

Unli tovushlar talaffuzining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

1. Talaffuz paytida havo oqimi halqum bo'shlig'idan og'iz bo'shlig'igacha erkin o'tadi, hech qanday to'siqqa uchramaydi.

⁶³ Maxmudxo'jayev M.X. Bekmuratov I. “Xitoy yozuvi” B.25.

⁶⁴ 林曦著“汉语拼音基础知音”，36 页。

⁶⁵ A. Karimov “Fonetika va ieroglifik yozuv” Toshkent, 2004, B.10.

⁶⁶ “实用普通话培训教程”山东，2004，33 页

Talaffuz paytidagi til va lablarning holatining o'zgarishiga binoan, og'iz bo'shlig'i ochilish darajasining katta kichikligiga ko'ra, turli xil unli tovushlar talaffuz qilinishi mumkin. Til holati old yoki orqa, yuqori yoki quyi bo'lishi mumkin; lablar holati ochiq yoki yopiq, erkin yoki tarang bo'lishi mumkin. Masalan: [a] unlisini talaffuz qilish paytida, til holati nisbatan quyi, og'iz biroz ochilgan holatda bo'ladi; [i] unlisini talaffuz qilganda, til holati nisbatan yuqori, og'iz nisbatan yopiq holatda bo'ladi.

Til holati yuqori, og'izning ochilish darajasi nisbatan tor bo'lgan holatida unli talaffuz qilinganda, havo oqimi siqilib chiqsada, ammo shunda ham hech qanday to'siq hosil qilmaydi, havo oqimi erkin ravishda o'tadi.

2. Talaffuz paytida nutq a'zolarining barcha muskullari tarang holatda bo'ladi.
3. Talaffuz paytida tovush paychalari titraydi, shuning uchun unlilarning barchasi nisbatan jaranglidir.
4. Talaffuz paytida havo oqimi asosan tovush paychalariga urilib, ularni titratish vazifasini bajaradi. Shu sababli chiqayotgan havo oqimi nisbatan kuchsizdir.

辅音 Undosh tovushlar

B b, C c, D d, F f, G g, H h, J j, K k, L l, M m, N n,
P p, Q q, R r, S s, T t, V v, W w, X x, Y y, Z z.

Undosh tovushlar xitoy tilida yana “子音” deb ham ataladi. Masalan, xitoy tilidagi “连” [lian] so'zidagi [l] va [n] tovushlari undosh tovushlardir.

Undosh tovushlar talaffuzining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

1. Talaffuz paytida, havo oqimi har bir nutq a'zosida to'siqqa uchraydi.

Biz og'iz bo'shlig'idagi tishlar, til, kichik til, shuningdek lablar, xalqum devori, tovush paychalari kabilarning o'zaro joylashgan o'rni havo oqimiga to'siq bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi bir nutq organlari bir-biriga ishqalanadi, havo oqimining yo'lini berkitadi, havo oqimini to'siqqa uchrashiga majbur qiladi; ba'zilar bir-biriga yaqinlashadi, ammo ishqalanmaydi. Havo oqimi siqilib o'tadi va havo oqimi to'siqqa uchrab, sirg'alib chiqadi. Boshqa birlari esa, boshqa xil usullar bilan havo oqimiga to'siq hosil qiladi va ular to'siqdan portlab chiqishi yoki sirg'alib o'tish xususiyatlariga qarab farqlanadi.

2. Talaffuz paytida barcha nutq a'zolarining muskullarini tarang tortilish darajasi muvozanatda bo'lmaydi. To'siq hosil qiluvchi nutq a'zolari, ayniqsa tarang bo'lib qolganlari nisbatan bo'shashgan bo'ladi. Masalan: [p] tovushini talaffuz qilganda ikkala lab to'siq hosil qiladi, juda tarang tortilgan bo'ladi. Til kabi boshqa nutq a'zolari tarang holatda bo'lmaydi. [t] tovushining talaffuzida esa til uchi ko'tarilib, yuqori milkarga tegadi, til uchi tarang holatda bo'ladi. Lablar, til usti, til orqasi kabi nutq a'zolari esa tarang holatda bo'lmaydi.

3. Undosh tovushni talaffuz qilganda ba'zan tovush paychalari titraydi, ba'zan esa titramaydi. Tovush paychalarini titratmasdan talaffuz qilinadigan undoshlar jarangsiz undoshlar deyiladi. Masalan: [p] undoshi; tovush paychalarini titratib talaffuz qilinadigan undoshlar esa jarangli undoshlar deyiladi. Masalan: [m] undoshi.

4. Unlilar bilan taqqoslaganda, undoshlar talaffuzida havo oqimi nisbatan kuchliroq chiqadi.

Turli xil undoshlar o'rtasida ham kuchli-kuchsizlik farqlanishi mavjud, havo oqimi kuchli bo'lgan tovushlar aspiratorlar deyiladi, havo oqimi kuchsiz bo'lgan tovushlar esa noaspiratorlar deb ataladi. Ammo odatda undosh tovushlarning havo oqimi unlilarnikiga qaraganda kuchliroq bo'ladi.

声母 Shengmu

Shenmu bo'g'inining undosh tovush bilan boshlanishini anglatadi, agar bo'g'in undosh tovush bilan boshlanmasa, u holda bu bo'sh shenmu deyiladi. Masalan, xitoy tilidagi cun zhuang so'zidagi shenmular – “c” va “zh”, biroq ang so'zida esa boshlang'ich undosh tovush mavjud emas, ya'ni bo'sh shenmudir. Undosh tovush va shenmu alohida tahlil qilinadi, ya'ni bular ikkalasi turli atamalardir. Undosh tovush ko'pincha shenmu vazifasini bajaradi. Shuningdek, yunmu oxiri vazifasini ham bajarishi mumkin. Masalan, nan so'zidagi oldindagi [n] undoshi shenmu vazifasini, orqadagi [n] undoshi esa yunmu oxiri vazifasini bajaradi.

韵母 Yunmu

Yunmu bo'g'indagi shenmudan keyin keladigan fonemadir. Xitoy tilida 39 ta yunmu mavjud. U bitta unlidan ham, unlilar birikmasidan ham, unli va undosh tovushlarning birikmasidan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, ba so'zida yunmu [a] dir, yakka unli; jiao so'zida esa yunmu – [iao] dir, unlilar birikmasi; xing so'zida yunmu – [ing] dir, unli va undosh tovushlarning birikmasi.

Shengmu va yunmularning birikishidan bo'g'in hosil bo'ladi. Har bir bo'g'in ustiga qo'yilgan ohang ularning ma'nosini farqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

音节 yin jie-Bo'g'in

Nutq tovushlari o'z birligi bo'yicha ayrim- ayrim aytiladi. Masalan, “ren min ri bao” degan so'z to'rtta birlik bo'lib aytiladi. Nutq tovushlarining ana shunday tabiiy birligi, ya'ni yagona fonetik birlikni hosil qiluvchi bir yoki bir

necha yovushlardan iborat eng kichik nutq birligi bo'g'in deb ataladi. Xitoy alifbosida bir ieroglif bir bo'g'in hisoblanadi.

声调 shengdiao-Ohang (ton)

Ohang bo'g'inning past balandligi, ko'tarilishi va pasayishi kabilarning o'zgarishidir. Ohangning o'zgarishi butun bir bo'g'inga ta'sir qiladi. Xitoy adabiy tilida shan so'zining ohangi uchinchi ohang bo'lib, ohang o'rni 214, ya'ni avval pasayib, keyin ko'tariluvchi ohang, 2-pozitsiyadan 1-pozitsiyaga tushadi, so'ng yana 4-pozitsiyaga ko'tariladi.

2-2-A. 声母 Shengmu

b, p, m, n, f

j, q, x

d, t, n, l

zh, ch, sh, r

g, k, h

z, c, s

Xitoy adabiy tilida jami 21 ta shengmu mavjud bo'lib, tovush chiqarish o'rniga ko'ra 7 guruhga⁶⁷ bo'linadi. Ular quyidagilar:

1. *Lab tovushlari*: yuqori va pastki lablarning yumilishi natijasida 3 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular b, p, m shengmularidir.

辨别 bian bie – ajratmoq

把柄 ba bing – predlog

⁶⁷ 实用普通话培训教程，山东，2004，B.35.

批评 pi ping - urishmoq 乒乓 ping pang – taqqillagan ovoz

秘密 mi mi - sirli 明媚 ming mei - ajoyib

2. *Lab tish tovushi:* tepa tishni pastki labga tegishi natijasida 1 ta shengmu hosil bo'ladi. Bu f shengmusidir.

方法 fang fa – usul, metod 芬芳 fen fang – xushbo'y

3. *Til uchi oldi tovushlari:* til uchi tepa tishning orqasiga yaqinlashishi natijasida 3 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular z, c, s shengmularidir.

总则 zong ze – umumiy qonun qoidalar

祖宗 zu zong - ajdodlar

猜测 cai ce – bilib olmoq 仓促 cang cu – shoshilmoq, oshiqmoq

松散 song san – yengil 琐碎 suo sui – mayda-chuyda, arzimagan

4. *Til uchi o'rta tovushlari:* til uchi tepa tishning mulkiga tegishi natijasida 4 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular d, t, n, l shenmularidir.

大豆 da dou – so'ya 达到 da dao – yetib bormoq

天堂 tian tang – jannat 梯田 ti tian – terrasa, ayvon

能耐 neng nai - iqtidor 牛奶 niu nai - sut

联络 lian luo - aloqa 伦理 lun li – etika

5. *Til uchi orqa tovushlari:* til uchini qattiq tanglayga tegishi natijasida 4 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular zh, ch, sh, r shengmularidir.

庄重 zhuang zhong - jiddiy

周折 zhou zhe – g'amxo'rlik

出差 chu chai – ximat safari

长城 chang cheng – buyuk devor

时时 shi shi – har doim

山水 shan shui – tog' suvi

柔软 rou ruan - yumshoq

容忍 rong ren – sabr qilmoq

6. *Til usti tovushlari:* til usti qattiq tanglayning oldiga tegishi natijasida 3 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular j, q, x shengmularidir.

积极 ji ji - faol

进军 jin jun – yurish qilmoq

请求 qing qiu - sabr qilmoq

亲戚 qin qi – qarindosh- urug'

写信 xie xin – xat yozmoq

虚心 xu xin - kamtar

7. *Til orqa tovushlari:* til orqani yumshoq tanglayga tegishi natijasida 3 ta shengmu hosil bo'ladi. Bular g, k, h shengmularidir.

古怪 gu guai - ajoyib

更改 geng gai – o'zgartirmoq

框框 kuang kuang – ramka

开口 kai kou - gapirmoq

呼唤 hu huan – chaqirmoq, taklif etmoq

后悔 hou hui – afsuslanmoq

Artikulyatsiya usullari

Shengmularning talaffuzi nafaqat artikulyatsiyaning o'rniga, balki usullariga ham bog'liqdir. Artikulyatsiya usullari deganda shengmu talaffuz qilinayotgan, paytda nutq a'zolarining to'siq hosil qilishi yoki qilmasligi, havo oqimini kuchli yoki kuchsizligi, tovush paychalarining titrashi yoki titramasligi kabilar tushuniladi.

Hosil bo'lish o'rni va hosil bo'lish usullariga ko'ra, putonghuada 21 ta shengmuni 5 guruhga bo'lish bo'lish mumkin.

1. *Portlovchi tovushlar*: talaffuz paytida artikulyatsiya o'rni (pastki va ustki lablar) jipslashgan, havo oqimi to'siqqa uchraydi. Keyin birdan qo'yib yuboriladi va havo oqimi portlab chiqadi. Putonghuada 6 ta partlovchi shengmu mavjud: b, p, d, t, g va k.

2. *Sirg'aluvchi tovushlar*: ikki nutq a'zosi (artikulyatsiya o'rni) yaqinlashadi va ular orasida tor bo'shliq hosil bo'ladi. Havo oqimi ana shu tor oraliqdan sirg'alib o'tadi. Putonghuada 6 ta sirg'aluvchi shengmu mavjud: f, h, x, s, sh va r.

3. *Portlovchi – sirg'aluvchi tovushlar*: avval nutq a'zolari (artikulyatsiya o'rni) jipslashadi, havo oqimi to'siqqa uchraydi. Keyin esa biroz qo'yib yuboriladi va tor oraliq hosil bo'ladi. Havo oqimi ana shu tor oraliqdan ham portlab, ham sirg'alib chiqadi. Putonghuada 6 ta portlovchi – sirg'aluvchi shengmu bor: j, q, zh, ch, z va c.

4. *Burun tovushlari*: nutq a'zolari (artikulyatsiya o'rni) jipslashadi va og'iz bo'shlig'ining havo yo'li berkitiladi. Bir paytning o'zida yumshoq tanglay pastroq tushadi va burun bo'shlig'i ochiladi. Havo oqimi va ovoz burun bo'shlig'i dan chiqadi. Putonghuada faqat 2 ta burun shengmusi mavjud: m, n.

5. *Yon tovush*: til uchi yuqori tomonga bukilib, mulkka tegadi. Yumshoq tanglay ko'tariladi va burun bo'shlig'i yopiladi, so'ng havo oqimi tilning ikki yonidan chiqadi. Putonghuada faqat 1 ta yon tovush mavjud: l.

Talaffuz paytida havo oqimining kuchli yoki kuchsizligiga ko'ra, portlovchi, portlovchi – sirg'aluvchi shengmularni 2 turga ajratish mumkin: nafas chiqarish yo'li bilan talaffuz qilinadigan shengmular (aspiratorlar) va nafas chiqarish yo'li bilan talaffuz qilinmaydigan shengmular (noaspiratorlar). Aspiratorlar havo oqimi nisbatan kuchli bo'ladi, ular 6 ta : p, t, k, q, c, ch. Noaspiratorlarda esa havo oqimi nisbatan kuchsiz bo'ladi, ular ham 6 ta : b, d, g, j, z, zh.

Talaffuz paytida tovush paychalarining titrashi yoki titramasligiga ko'ra, 21 ta shengmuni tovushlarini 2 turga jarangli va jarangsiz shengmularga ajratish mumkin. Talaffuz paytida tovush paychalari ishtirok etmaydigan undoshlar jarangsiz shengmular deb ataladi. Putonghuada 17 ta jarangsiz shengmu mavjud: b, p, f, d, t, z, c, s, sh, ch, zh, j, q, x, g, k, h.

Talaffuz paytida tovush paychalari ishtirok etadigan undoshlar jarangli shengmular deb ataladi. Putonghuada 4 ta jarangli shengmular mavjud: m, n, l, r.

I-2-B. 韵母 Yunmu

a, o, e	ai, ei	ia, ie	iao
ê, i, u	ao	ua, uo	iou
ü, i, i, er	ou	üe	uai , uei
an	en	ang	ing
ian	in	iang	ueng
uan	un	uang	ong
üan	ün	eng	iong

Putonghuada yunmularni 3 turga ajratishimiz mumkin, ya'ni yakka yunmular, qo'sh yunmular va burun yunmulari.⁶⁸

1. Yakka yunmular

Bitta unli tovushdan tuzilgan yunmular yakka yunmu deyiladi. Putonghuada yakka yunmular 3 turga bo'linadi: til usti yakka yunmulari, til uchi yakka yunmulari va til qayrilma yunmusi.

1. Til usti yakka yunmulari.

Odatda yunmular deganda til usti yunmulari deyiladi, ya'ni talaffuz paytida til usti ko'tarilib, havo oqimini boshqarganda hosil bo'ladigan yunmulardir.

Masalan: a, u, o, e.

Til usti yakka yunmusini talaffuz qilayotganda, til usti ko'tarilib o'pkadan chiqayotgan havo oqimini boshqaradi. Til usti ko'tarilishi ham, pasayishi ham mumkin.

Tilning og'iz bo'shlig'ida joylashuv holatiga til holati deyiladi. Til holati yuqori yoki quyi, old yoki orqa, bo'lishi mumkin. Lablar ham yunmular hosil bo'lishida lablashtirish hodisasi yuz bermaydi.

Til ustiquyili yunmulari o'ziga xos sifatlari 3 omil orqali aniqlanadi: til holatining yuqori yoki gi, til holatining old yoki orqaligi va lablarning ishtirok etishi yoki etmasligi. Bularning orasida biror omilning o'zgarishi, boshqa xil tovush talaffuz qilinishiga olib keladi.

muhim rol o'ynaydi. Lablar oldinga intilib, doira shaklida bo'ladi, ya'ni lablashtirish hodisasi sodir bo'ladi yoki lablar tekis holda bo'ladi. Ya'ni

1) Tilning vertikal (yuqori, quyiligi) holatiga ko'ra .

⁶⁸ 实用普通话培训教程“山东，2004，38 页。

Tilning vertikal holati 7 xil bo'lishi mumkin. Ularning ketma-ketligi: yuqori, eng yuqori, yarim yuqori, o'rta, yarim quyi, eng quyi, quyi.

Yuqori yunmuni talaffuz qilayotganda til holati yuqorida bo'ladi (tanglay yuqorida bo'ladi), og'iz ochilishi darajasi tor bo'ladi, talaffuz jaranglaydi. Quyi yunmuning talaffuzi paytida esa, til holati quyida bo'ladi (til tanglaydan ancha uzoqlashadi), og'iz ochilish darajasi keng bo'ladi, tovush jaranglab chiqadi.

Nisbatan erkin transkripsiya qoidalariga ko'ra tilning vertikal holati 4 darajaga bo'linadi: yuqori , yarim yuqori, yarim quyi va quyi. Biz ham putonghuadagi til yunmularini 4 turga bo'lib o'rganamiz.

(1) *yuqori unlilar*: tilning holati eng yuqorida bo'lganda talaffuz qiladigan unlilar, yuqori unlilar deyiladi. Putonghuada 3 ta yuqori yakka yunmu mavjud: i [i], u [u], ü [y].

(2) *Yarim yuqori unlilar*: til holati yuqori qism va o'rta qism o'rtasida bo'lganda talaffuz qilinadigan unlilar yarim yuqori unlilar deb ataladi. Putonghuada 2 ta yarim yuqori yakka yunmu tovushlari mavjud: o [o], e [e].

(3) *Yarim quyi unlilar*: til holati pastki qism va o'rta qism o'rtasida bo'lganda talaffuz qilinadigan unlilarga yarim quyi unlilar deyiladi. Putonghuada 1 ta yarim quyi yakka yunmusi mavjud: ê [□]. Putonghuada faqat [e] yarim quyi yakka yunmu hisoblanadi.

(4) *Quyi unlilar*: til holati eng quyida joylashganda hosil bo'ladigan unli tovushlar quyi yunmular deyiladi. Putonghuada a [A] unlisi quyi yakka yunmu hisoblanadi.

2) Tilning gorizontal (old, orqa) holatiga ko'ra.

Talaffuz paytida tilning oldi yoki orqa qismining faolligiga ko'ra, unlilar 3 xil bo'ladi: til oldi, til o'rta va til orqa unlilari.

(1) *Til oldi unlilari*: bu unlilar talaffuz qilinganda, tilning oldingi qismi faol harakat qiladi. Putonghuada 3 ta til oldi yakka yunmulari mavjud: i [i], ü [y], ê [□].

(2) *Til o'rta unlilari*: bu unlilar talaffuz qilinganda til nisbatan turli holatda bo'ladi. Tilning o'rta qismining faolligi natijasida tovush hosil bo'ladi. Putonghuada 1 ta til o'rta yakka yunmusi mavjud: a [A].

(3) *Til orqa unlilari*: bu unlilar talaffuz qilinganda, tilning orqa qismi faol harakatga qiladi. Putonghuada 3 ta til orqa yakka yunmulari mavjud: u [u], o [o], e [□].

3) Lablar ishtirokiga ko'ra.

Yakka yunmular talaffuzidagi lablarning ishtirokiga ko'ra, ularni yana lablangan va lablanmagan unlilarga ajratish mumkin, lablanmagan unlilar yana zhan “展” deb ataladi.

(1) *Lablangan unlilar*: lablangan unlilar talaffuz qilganda, lablar nisbatan tarang bo'ladi, ya'ni ular oldinga intilib, doira shaklida bo'ladi. Putonghuada 3 ta lablangan yunmu mavjud: u [u], ü [y], o [o].

(2) *Lablanmagan unlilar*: lablanmagan unlilarni talaffuz qilayotganda, lablar nisbatan bo'sh, nofaol bo'ladi. Putonghuada a [A], e [□], ê [□], i [I] kabi lablanmagan yunmulari mavjud.

2. Til uchi yakka yunmulari.

Til uchi faol ishtirok etganda hosil bo'ladigan tovushlar til uchi yunmulari deyiladi. Putonghuada 2 ta til uchi yunmulari bor, ularning biri z, c, s

tovushlari bilan qo'shilib keladigan i [i] unlisi, ikkinchisi zh, ch, sh, tovushlari bilan qo'shilib keluvchi i [i] unlisi.

3. Til qayrilma yakka yunmusi.

Unli tovushni talaffuz qilish paytida til uchi qayrilganda hosil bo'luvchi unli tovush, til qayrilma unlisidir. Til qayrilma unlisi yunmu sifatida odatda boshqa shengmular bilan birikib kelmaydi, ammo yakka holda bitta bo'g'inni tashkil etadi. Putonghuada faqat bitta til qayrilma yunmusi er [□] mavjud bo'lib, talaffuz paytida til o'rta lablanmagan unlining holatida bo'ladi, bir paytning o'zida til ko'tarilib, biroz qayriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan er unlisini talaffuzi paytida burun bo'shlig'ining havo yo'li berkitilgan bo'lib, havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali chiqadi. Shuning uchun ham og'iz unlilari deb ataladi. Unlilarni talaffuz qilish paytida yumshoq tanglay pasaytirilsa, havo oqimi bir vaqtning o'zida ham og'iz bo'shlig'idan, ham burun bo'shlig'idan chiqadi. Bunday hosil bo'lgan unli tovushlar burun yunmulari deyiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan yunmularning barcha toifalari turli xil qarash va tahlillarning natijasidir. Bundan ko'rishimiz mumkinki, turli nuqtai nazardan turli toifalar kelib chiqadi. Aslida esa bitta yunmuni talaffuz qilganda tilning holati, og'iz bo'shlig'i, lablar va yumshoq tanglay kabi nutq a'zolarining barchasi ishtirok etishi lozim. Shu sababli bitta yunmu bir paytning o'zida tilning vertikal yoki gorizontal holati, lablar holati — yumaloqlangani yoki tekisligi kabi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi mumkin. Masalan: a [A] unlisi “ til usti, o'rta, quyi, lablanmagan unlidir”. Shunday qilib, biz unli tovushlar qoidalarini o'rganganda, ularni mustaqil ravishda (alohida- alohida) o'rgana olmaymiz, aksincha ularni umumiy holda egallashimiz kerak.

Quyidagi yakka yunmulaning talaffuz qoidalari bilan alohida-alohida tanishib chiqamiz:

a [A]

Til usti, o'rta, quyi, lablanmagan unli. Masalan :

拉杂 la za – tartibsizlik

发达 fa da – yetuk, irodali

O [o]

Til usti, orqa, yarim yuqori, lablangan unli. Masalan:

反驳 fan bo – rad etmoq, noto'g'ri ekanligini isbotlamoq

菠菜 bo cai – shpinat

e [□]

Til usti, orqa, yarim yuqori, lablanmagan unli. Masalan:

负责 fuci - javobgarlik

合作 – hamkorlik

ê [□]

Til usti, oldi, yarim quyi, lablanmagan unli. Masalan:

欸 ei – yaxshi

i [i]

Til usti, oldi, yuqori, lablanmagan unli. Masalan:

厘米 limi – santimetr

洗涤 xidi – kir yuvmoq

u [u]

Til usti, orqa, yuqori, baland, lablangan unli. Masalan:

服务 fu wu – xizmat ko'rsatish 输出 shu chu – import

ü [y]

Til usti, oldi, yuqori, lablangan unli. Masalan:

区域 qu yu – rayon 急剧 ji ju – darhol

i [□]

Til uchi, oldi, yuqori, lablanmagan unli. Masalan:

滋生 zi sheng - ko'payish 四次 si ci – to'rt marta

i [□]

Til uchi, orqa, yuqori, lablanmagan unli. Masalan:

事实 shi shi - dalil 实质 shi zhi – mohiyat

er [□]

Til qayrilma, o'rta lablanmagan yunmudir. Masalan:

耳朵 er dou - quloq 儿歌 er ge - bolalar qo'shig'i

Poliftonglar

Ikki va undan ortiq unlidan tashkil topgan yunmu, poliftong yunmu deb ataladi. Putonghuadagi poliftonglar diftong va triftonglarga bo'linadi.

1. Diftonglar

Ikkita unli tovushdan tashkil topgan yunmu diftong deb ataladi, u ham ikki turga bo'linadi, ya'ni oldingi unlisi jarangli diftonglar va keying unlisi jarangli diftonglar.

1) Oldingi unlisi jarangli diftonglar

Birinchi unlini talaffuz qilganda, og'izning ochilish darajasi kengroq bo'ladi va tovush jarangliroq chiqadi. Keyingi unlini talaffuz qilganda esa og'izning ochilish darajasi torroq, nisbatan jarangsiz bo'ladi. Shunday ikki unli tovushdan tuzilgan birikmaning oldingi unlisi jarangli diftonglar deb ataladi. Putonghuada 4 ta oldingi unlisi jarangli diftonglar bor, ular quyidagilar: ai, ei, ao, ou.

ai [ai]

白菜 bai cai – karam

买卖 mai mai – savdo-sotiq.

ei [ei]

妹妹 mei-mei -singil

美味 mei – wei - xushmuomila

ao [ao]

报道 bao dao - xabar qilmoq

号召 hao zhao - chaqirmoq

ou [ou]

走兽 zou shou - yovvoyi hayvon

守候 shou hou - kutib turmoq

2) Keyingi unlisi jarangli diftonglar

Oldingi unlini talaffuz qilganda og'izning ochilish darajasi nisbatan torroq bo'lib, tovush unchalik jaranglamaydi, aksincha keyingi unlini talaffuz qilganda og'izning ochilish darajasi kengroq bo'lib, tovush jarangliroq talaffuz qilinadi. Bunda ikki unlidan tashkil topgan birikmaning keyingi unlisi jarangli diftong deb ataladi, ya'ni yunmu boshi va yunmu o'rtasidan tuzilgan yunmudir.

Putonghuada 5 ta keyingi unlisi jarangli diftong mavjud bo'lib, ular ia, ie, ua, uo, üe.

ia [iA]

天天 tian tian -har kun

见面 jian mian – uchrashmoq

ie [i□]

姐姐 jie jie - opa

大街 da jie – katta ko'cha

ua [uA]

西瓜 xi gua - tarvuz

刮风 gua feng - shamol esmoq

uo [uo]

错过 cuo guo - o'tkazmoq

脱落 tuo luo - yiqilib tushmoq

üe [y□]

角色 jue se - rol

乐队 yue dui – orkestr

2. Triftonglar

Uchta unlidan tuzilgan yunmu triftong deb ataladi, ya'ni yunmu boshi, yunmu o'rtasi va yunmu oxiridan tashkil topgan yunmudir. Triftongni talaffuz qilganda o'rtadagi yunmu nisbatan jaranglidir. Og'iz ochilish darajasi nisbatan kengroq, shuning uchun triftonglarni o'rta unlisi jarangli poliftong deb ham atash mumkin.

Putonghuada 4 ta triftong mavjud bo'lib, ular iao, iou, uai va uei.

iao [iau]

佼佼 jiao jiao -mashxur

巧妙 qiao miao – ziyrak

iou [iou]

牛油 niu you – mol yog'i

酒精 jiu jing – spirt

uai [uai]

外快 wai kuai – daromad

拐角 guai jue – muyilish, burchak

uei [uei]

嘴碎 zui sui – maxmadona

汇兑 hui dui – yubormoq

Burun (dimog') yunmulari

Unliga burun undoshi birikishidan hosil bo'lgan yunmu, burun yunmusi deb ataladi. Odatda bitta yoki ikkita unliga bitta burun undoshi birikadi.

Putonghuada 16 ta burun yunmusi mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

an [an]

漫谈 man tan - suhbatlashmoq

晚饭 wan fan – tushlik

ian [i□n]

天线 tian xian – antenna

脸面 lian mian – yuz

uan [uan]

转换 zhuan huan – alishtirmoq

专断 zhuan duan – o'zivoshimchalik

üan [y□n]

全权 quan quan – vakolat

源泉 yuan quan – buloq

en [ə]

本分 ben fen – burch

人们 ren men – xalq

in [in]

语音 yu yin – fonetika

信心 xin xin – ishonch

un [uən]

婚姻 hun yin – nikox

后盾 hou dun – madad

ün [yn]

寻找 xun zhao – qidirmoq

军训 jun xun – harbiy ta’lim

ang [aŋ]

帮忙 bang mang – yordam bermoq

经常 jing chang – tez- tez

iang [ioŋ]

响亮 xiang liang – baland ovoz

量变 liang bian – miqdoriy o’zgarish

uang [uaŋ]

状况 zhuang kuang – holat

广场 guang chang – maydon

eng [eŋ]

朋友 pengyou - do’st

变更 biangeng – o’zgartirmoq

ing [iŋ]

行星 xing xing – planeta

姓名 xing ming – ism-familiya

ueng [ueŋ]

嗡嗡 weng weng – vizzillamoq

瓮城 weng cheng – himoya devori

ong [uŋ]

红军 hong jun – qizil armiya

总统 zong tong – prezident

iong [yŋ]

兄弟 xiong di – aka-uka

熊猫 xiong mao -panda

Yunmuning strukturasi

1. *Yunmu boshi*: Yunmu boshi bu yunmu o'rtasidan oldin keladigan unlidir, odatda yuqori unli bu vazifani baradigan va talaffuz unchalik jaranglamaydi. Putonghuada 3 ta yunmu boshi mavjud: ular i [i], u [u], ü [y].

2. *Yunmu o'rtasi*: Yunmu o'rta og'izning ochilish darajasi kengroq bo'lgan holatda talaffuz qilinganda yunmu unlilari orasidagi eng jarangli unlidir. Masalan: ua [uA] yunmusidagi a, ei [ei] yunmusidagi e, iou [iou] yunmusidagi o unli yunmu boshi. Yunmu o'rtasidan keyin keluvchi unli yoki undosh yunmu oxiri bo'ladi.

3. *Yunmu oxiri*: Yunmu oxiri bu yunmu o'rtasidan keyin keladigan unli yoki undosh tovushdir. Putonghuada yunmu oxiri vazifasini bajaradigan 2 ta undosh –n, ng va 2 ta unli –i, u tovushlari mavjud. Masalan: ei yunmusidagi i; ao yunmusidagi u; an yunmusidagi n; ing [in] yunmusidagi ng kabilar yunmu oxiridir.

Yunmu talaffuzining to'rt usuli

Yunmu boshining bor-yo'qligi yoki yunmu boshi vazifasini bajaruvchi muayyan unlilarning har xilligiga ko'ra yunmularning talaffuz uslubini 4 ga bo'lish mumkin, bu to'rt usulni “ sihu “ (“四呼”) ya'ni yunmu talaffuzining to'rt uslubi deb atash qabul qilingan.

1. *Ochiq og'iz yunmusi*. Yunmu boshi mavjud emas, ammo yunmularning i, u, ü lar bilan boshlanuvchi yunmulari emas. Masalan:

a, o, e, ê, er

ai, ei, ao, ou

an, ang, en, eng

E'tibor bering: z, c, s bilan birikadigan i [ㄷ] va zh, ch, sh, r bilan birikadigan i [ㄷ] yunmulari ochiq og'iz yunmulari hisoblanadi.

2. *Cho'zilgan og'iz yunmusi*. Yunmu boshi i bo'lgan yoki yunmu o'rtasi i bo'lgan yunmu. Masalan:

i, ia, ie, iao, iou

ian, in, iang, ing

3. *Yopiq og'iz yunmusi*. Yunmu boshi u yoki yunmu o'rtasi u bo'lgan yunmudir. Masalan:

u, ua, uo, uai, uei

uan, uen, uang, ueng, ong

4. *Yig'ilgan (tortilgan) og'iz yunmusi*. Yunmu boshi ü bo'lgan yoki yunmu o'rtasi ü bo'lgan yunmudir. Masalan:

ü, üe, üan, ün, iong

2-3. Qo'shib yozish qoidalari

1. “ i ”, “ ü ” mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda oldiga “ y ” qo'shiladi.

Masalan:

一 yi – bir

雨 yu – yomg'ir

西医 xi yi – harbiy vrach

一定 yi ding - albatta

Yunmu “ u ” mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda oldiga “ w ” qo'shiladi. Masalan:

勿 wu – yo'q

五 wu – besh

物质 wu zhi – modda

礼物 li wu – sovg'a

Yunmu “ iou ” ning oldiga shengmu qo'shilganida o'rtasidagi “ o ” qisqartirilib, “ iu ” qilib yoziladi. Masalan:

九 jiu – to'qqiz

牛 niu – mol

六 liu – olti

旧 jiu – eski

Yunmu “ ü ” bilan shengmu “ j, q, x ” qo'shilganda, “ ü ” ning ustidagi ikki nuqta qisqartirilib, “ ju, qu, xu ” bo'lib yoziladi. Lekin shengmu “ n, l ” bilan qo'shilganda, nuqtalar qisqartirilmaydi. Masalan:

妇女 funü – ayol

纪律 jilü - intizom

居住 juzhu – joylashish

区别 qubie – farq

Yunmu “ uei, uen ” shengmu bilan qo’shilganida o’rtadagi “ e ” qisqarib, “ ui, un ” qilib yoziladi. Masalan:

万岁 wan sui – yashasin

准备 zhun bei – tayyorgarlik

反对 fan dui – qarshisida

困难 kun nan – qiyin, og’ir

“ u ” bilan boshlangan yunmu mustaqil bo’g’in bo’lib kelganda, “ u ” ni “ w ” shaklida o’zgartirib yozish kerak. Masalan:

ua → wa

uo → wo

uei → wei

uan → wan

uai → wai

uen → wen

uang → wang

ueng → weng

维文 wei wen – uyg’ur yozuvi

完 wan – tugash

伟大 wei da – buyuk

文 wen - til

Agar bo’g’inning yunmusi “ ui ” yoki “ iu ” bo’lsa, ohang belgisi ketidagi unli tovushning ustiga qo’yiladi. Masalan:

羞愧 xiū kui – hijolat bo’lmoq, uyalmoq

追求 zhui qiú – izlash, intilish

Yunmu “ ü ” va “ ü ” bilan boshlangan yunmular mustaqil bo’g’in bo’lib kelganda oldiga “ y ” qo’shiladi, “ ü ” ning ustidagi ikki nuqta tushib qoladi. Masalan:

月 yue – oy

圆 yuan - yumaloq

云 yun – bulut

渔夫 yu fu - baliqchi

原料 yuan liao – xom-ashyo

乐器 yue qi – musiqa

Bo'g'inda ayish belgisini ishlatish

“ a, o, e ” bilan boshlangan bo'g'inlar boshqa bo'g'inlarning orqasidan ulanib kelganda bo'g'in chegarasi bir-biri bilan aralashib ketib, boshqa ma'no berib qo'yishdan saqlanish uchun bo'g'in ayirish belgisi “\” qo'yiladi. Masalan:

皮袄 pi\ao – po'stin

票 piao - bilet

西安 xi\an – Sian

线 xian - ip

饥饿 ji\e – och qolish

街 jie – ko'cha

“ i, in, ing ” mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda oldiga “ y ” qo'shiladi. Undan tashqari “ i ” bilan boshlangan yunmu mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda “ i ” ning o'rniga “ y ” qo'llaniladi. Konkret ishlatish usuli quyidagicha:

Yunmu i, in, ing

Mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda: yi, yin, ying “ y ” qo'shiladi.

Yunmu ia, ie, iao, iou, ian, iang, iong

Mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda: ya, ye, yao, you, yan, yang, yong

(“ i ” ning o'rniga “ y ” qo'llaniladi.). Masalan:

利益 li yi – manfaat

一般 yi ban - odatdagi

因此 yin ci – shuning uchun

生硬 sheng ying – qo'pol

友谊 you yi – do'stlik

朋友 peng you – do'st

发扬 fa yang – joriy qildirish

“ zh, ch, sh, r, z, c, s ” lar mustaqil bo'g'in bo'lib kelganda, keyingi yunmu “ i ” qilib yoziladi: zhi, chi, shi, ri, zi, ci, si

纸 zhi – qog'oz

事 shi - ish

字 zi – xat

死 si – o'lim

吃 chi – yeyish

日 ri – kun, quyosh

词 – so'z

2-4. “声调” shengdiao - Putonghua ohanglari (ton)

Ohang – bo'g'inning talaffuzda past – baland bo'lib o'zgarishidir, xitoy tilida ohang ma'no farqlash vazifasini ham bajaradi. Ohangda tovushning balandligi asosiy xususiyat hisoblanadi. Tovushni cho'ziqligi esa ikkinchi darajali qo'shimcha belgidir. Xitoy tilida ohang asosan, ikki xususiyat - ohang turlari va ohang mazmuniga ko'ra tahlil qilinadi.

Ohang turlari

Ohang turlari ohangning toifalanishini bildiradi. Tovush balandligining o'zgarishi bir xil bo'lgan ierogliflar birgalikda ohang turlarini hosil qiladi.

Xitoy adabiy tilining og'zakisi putonghuada 4 ta ohang turi mavjud, xitoy boshqa shevalarida esa ko'pi bilan 10 xil ohang turi mavjud.

Putonghuada 4 ta ohang bor, ular quyidagilar :

1. Ohang (55) – yuqori tekis ohang bo'lib, “ — ” belgisi bilan ifodalanadi.
2. Ohang (35) –yuqoriga ko'tariluvchi ohang bo'lib, “ / “ belgisi bilan ifodalanadi.
3. Ohang (214) –pastlab yana yuqoriga ko'tariluvchi ohang bo'lib, “ V “ belgisi bilan belgilanadi.
4. Ohang (51) –yuqoridan pastga tushuvchi ohang bo'lib, “ \ “ belgisi bilan ifodalanadi.

Ohang belgisi unli tovush ustiga qo'yiladi. Agar bir bo'g'inning yunmusida ikki yoki undan ortiq unli tovush bo'lsa, ohang belgisi bo'g'inning ichidagi asosiy unli tovush ustiga qo'yiladi. Masalan: “ iao “, “ ai “ dagi bu ikki bo'g'inning ohang belgisi “ a “ ning ustiga qo'yiladi.

Ohang o'rni

Ohang o'rni, ohangning aniq o'qilish qoidasini anglatadi, bo'g'inning baland–pastligi, ko'tarib–pastlashi, to'g'ri-noto'g'riligi kabi xususiyatlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Ohang o'rni tovush balandligining o'zgarishiga xosdir. Ohang o'rnini farqlanishi mutlaq tovush balandligiga bog'liq emas, biroq nisbatan tovush balandligiga bog'liqdir.

1) Mutlaq tovush balandligi

Tovushni chastotasi xususiyatlaridan kelib chiqib, odatda ayollar va kichik yoshdagi bolalarning nutq organlari nazarda tutiladi, tovush paychalari nisbatan

kalta va yupqa bo'ladi. Tovush chastotasi erkak kishinikidan yuqori bo'lsa, bu tovush mutlaq balandlikka ega bo'ladi.

Ohang o'zgarishi

Gapirganda qo'shilib kelgan bo'g'inlarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi bilan, ba'zi bo'g'inlarning ohanggi o'zgarib ketadi. Putonghuada ko'p uchraydigan ohang o'zgarish hodisalari quyidagilar:

1. Uchinchi ohangning o'zgarishi

Uchinchi ohangning o'zgarishi asosan, boshqa ohangdagi bo'g'inlardan oldin kelganda sodir bo'ladi. Uchinchi ohangli bo'g'in yolg'iz kelganda yoki boshqa bo'g'inlardan keyin kelganda, ohang o'zgarishi sodir bo'lmaydi . Uchinchi ohang o'zgarishining quyidagi asosiy turlari mavjud:

- 1) Uchinchi ohang (214) + uchinchi ohang (214) → ikkinchi ohang (35) + uchinchi ohang (214). Masalan:

美好 Mei hao

洗脸 xi lian

水果 shui gui

想买 xiang mai

好马 hao ma

打水 da shui

2. Uchinchi ohang (214) + boshqa ohang → yarim uchinchi ohang (21) + boshqa ohang . Masalan,

好说 hao

想赢 xiang ying

语言 yu yan

伟大 wei da

你们 ni men

喜欢 xi huan

3. Uchinchi ohang neytral bilan birga o'qilganda ikki xil holat sodir bo'ladi. Yarim uchinchi ton sifatida o'qilish holati ko'p uchraydi.

Uchinchi ohang (214) + neytral ohang → yarim uchinchi ohang (21) + neytral ohang. Masalan,

姐姐 jie jie

椅子 yi zi

奶奶 nai nai

耳朵 er duo

饺子 jiao zi

暖和 nuan huo

Uchinchi ohang (214) + neytral ohang → ikkinchi ohang (95) + neytral ohang. Masalan:

法子 fa zi

哪里 na li

把手 ba shou

可以 key i

想法 xiang fa

眼里 yan li

4. Uchta uchinchi ohang qo'shilib o'qilganda, ikki xil holat sodir bo'ladi.

1) Uchinchi ohang +(uchinchi ohang + uchinchi ohang) → yarim uchinchi ohang (21) + ikkinchi ohang (35) + uchinchi ohang (214)

小老鼠 xiao lao shu

李小姐 li xiao jie

补语法 bu yu fa

好种马 hao zhong ma

有想法 you xiang fa

纸老虎 zhi lao hu

2) (uchinchi ohang + uchinchi ohang) + uchinchi ohang (214) → ikkinchi ohang (35) + ikkinchi ohang (35) + uchinchi ohang (214) . Masalan,

展览馆 zhan lan guan

种马场 zhong ma chang

洗脸水 xi lian shui

老虎口 lao hu kou

雨伞厂 yu san chang

讲演稿 jiang yan gao

Tezlik bilan o'qilganda, bu ikki holat quyidagicha o'zgarishi mumkin. :
“Ikkinchi ohang + ikkinchi ohang + uchinchi ohang”.

2. Uchinchi ohang o'zgarishi .

To'rtinchi ohang (51) + to'rtinchi ohang (51) → yarim to'rtinchi ohang (53)
+ to'rtinchi ohang (51). Masalan,

上课 shang ke

变化 bian hua

快去 kuaqu

电话 dian hua

再见 zaijian

害怕 hai pa

3. “一“yi,”七“qi,”八“ba lar birinchi va ”不“bu to'rtinchi ohangdadir. Bularda ohang o'zgarishi.

“一“yi,”七“qi,”八“ba,”不“larning tarixi o'rta asrlardagi jarangsiz va yarim jarangli undoshlar bilan boshlanuvchi, kiruvchi ohangga ega bo'lgan so'zlarga borib taqaladi, shu sababdan ularning o'ziga xos ohang o'zgarish usullari mavjud. Ulardan “一“yi va ”不“ning ohang o'zgarish qoidalari quyidagicha:

1) “一“yi , ”不“bu + to'rtinchi ohang (51) → ikkinchi ohang (35) + to'rtinchi ohang (51). Masalan:

一定 yiding

一对 yi dui

一个 yi ge

一样 yi yang

一带 yi dai

一去 yiqu

一半 yi ge

一向 yi xiang

不去 bu qu 不会 bu hui 不对 bu dui 不错 bu cuo

不但 bu dan 不必 bu bi 不便 bu bian 不测 bu ce

2) “一“yi , ”不“bu + to’rtinchi ohangdan tashqari ohang → to’rtinchi ohang (51)

+ to’rtinchi ohangdan tashqari ohang. Masalan:

一听 yi ting 一说 yi shuo 一人 yi ren 一想 yi xiang

一同 yi tong 一边 yi bian 一般 yi ban 一口 yi kou

不说 bu shuo 不吃 bu chi 不行 bu xing 不好 bu hao

不来 bu lai 不走 bu zou 不能 bu neng 不想 bu xiang

3) ”七“qi , ”八“ba (55) + to’rtinchi ohang (51) → ikkinchi ohang (35) +

to’rtinchi ohang (51). Masalan:

七岁 qi sui 七个 qi ge 七次 qi ci 七步 qi bu

七下 qi xia 七拉 qi la 七座 qi zuo 七站 qi zhan

八课 ba ke 八块 ba kuai 八次 ba ci 八面 ba mian

八座 ba zuo 八代 ba dai 八度 ba du 八段 ba duan

“七“qi , ”八“balarning ohang o’zgarishlari hozirgi kunda yo’qolib bormoqda.

Ko’plab holatlarda asl ohangida o’qiladi, o’zgarmaydi.

4. Sifatlar reduplikatsiyasida ohang

1) Bir bo'g'inli sifatlar ikkilanganda, u aslida qanday ohangda ekanligidan qat'iy nazar, keying bo'g'in ko'pincha birinchi ohangda bo'ladi. Bunday holatlarning ko'pchiligida “erlashish” hodisasi yuz beradi.

好好 hao hao 慢慢 xiao xiao 高高 gao gao 轻轻 qing qing

红红 hong hong 小小 xiao xiao 大大 da da 亮亮 liang liang

2) “ABB” ko'rinishidagi sifatlarning cheklanishida, so'nggi ikkilangan bo'g'in va suffikslarning hammasi ikkinchi ohangda o'qiladi.

亮堂堂 liang tang tang 红彤彤 hong tong tong

3) “AABB” ko'rinishida sifat reduplikatsiyasida, ikkinchi bo'g'in neytral ohanda, keyingi ikki bo'g'in esa ikkinchi ohangda o'qiladi.

快快乐乐 kuai kuai le le 舒舒服服 shu shu fu fu

亮亮堂堂 liang liang tang tang 漂漂亮亮 piao piao liang liang

客客气气 ke ke qi qi 轻轻松松 qing qing song song

Yengil ohang

Yengil ohang - ovoz o'zgarishining bir turi. Putonghuadagi to'rtta asosiy ohangning hammasi yengil ohangga o'zgara oladi. Tovush yengil ohangga o'zgarganda ham qisqa, ham yengil aytiladi. Shuning uchun, uning belgisi qo'yilmaydi. Yengil ohang adatda so'zning oxirida bo'ladi. Masalan:

你的 ni de 来了 lai le

麦子 mai zi 爸爸 ba ba

Putonghuada talaffuz qilganda “ yengil ohang “ boshqa ohanglarga o'xshash , ba'zan so'z ma'nosini farqlashtirish roliga egadir. Masalan,

东西 dōngxī- sharqiy-g'arb

东西 dōngxì- narsa

兄弟 xiōng di

兄弟 xiōngdì

2-5. 音节 Yin jie - Bo'g'in

Nutq eshitilishi bo'yicha, fonetik jihatdan, kichikroq birliklarga bo'linadi. Ularni biz bo'g'inlar deb ataymiz. Nutq tovushlari o'z birligi bo'yicha ayrim-ayrim aytiladi. Masalan, 人民日报 ren min re bao degan so'z birikmasi to'rtta birlik bo'lib aytiladi. Bu to'rt birlik to'rtta bo'g'inni tashkil etadi. Xitoy yozuvida bitta ieroglif bitta bo'g'inni tashkil etadi. Odatda bir bo'g'in ikki qismga bo'linadi. Bo'g'in boshidagi undosh shengmu, undan keyingi bo'lagi esa yunmu deb ataladi. Masalan: 八 ba ning birinchi qismi shengmu, ikkinchi qismi yunmu deb ataladi.⁶⁹

Bo'g'in so'zlashish paytida tabiiy ravishda hosil bo'ladigan, eshitganda tabiiy ravishda eshitiladigan talaffuzning eng kichik bo'lagidir. Masalan, xitoy tilidagi 历史 li shi so'zini ikkita birlikka ajratib talaffuz qilamiz. Shuningdek, ikkita birlik sifatidek eshitamiz ham, aslida u to'rtta birlik, ya'ni l, i, sh, i sifatida qabul qilmaymiz. Faqatgina tilshunoslarga tahlil paytida, bu so'zni to'rtta eng kichik birlik (fonema) ga ajratib tahlil qilishlari mumkin. Odatda bunday so'zlar ikkita birlikka bo'lib aytiladi va eshitiladi. Shu sababli ular ikkita bo'g'indir.

⁶⁹ A. Karimov « xitoy tili grammatikasi» 2004, 9-b.

Umuman olganda, xitoy tilida bitta ieroglif bitta bo'g'inni ifodalaydi. Faqat “花儿 huar” kabi erlashgan so'zlarda “儿 er” tovushining qo'shilishi bilan ikkita ieroglifdan iborat so'zga aylansada, aslida “花儿 huar” so'zidagi ikkita ieroglif bitta bo'g'inni ifodalaydi.⁷⁰

Bo'g'in fonetik strukturaning asosiy birligi hisoblanadi. Xitoy tilida bo'g'in bir nechta fonemalarning birlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Masalan: “屋” [u] da bitta fonema; “大” [ta] da ikkita fonema; “半” [pan] da uchta fonema; “交” [iao] da to'rtta fonema va hokazo. Xitoy tilida bo'g'in kamida bitta fonemadan iborat bo'lishi mumkin. Masalan: “阿 a” , “俄 e” ko'pi bilan esa to'rtta fonemadan tashkil topishi mumkin. Masalan: “庄 zhuang” so'zida “zhuang” oltita tovush bo'lganiga qaramay, faqatgina to'rtta fonema mavjud, ya'ni zh, u, a, ng . Shunga o'xshash “双 shuang” , “黄 huang” kabilarni ham misol qilib keltirsa bo'ladi.

An'anaviy fonetikada xitoy tilidagi har bir bo'g'in shengmu, yunmu va ohang kabi 3 ta turga bo'linib o'rganiladi. Ularning orasida murakkabi yunmulardir, ya'ni yunmuni tahlil qilish murakkabroqdir. Bir yunmu ko'pi bilan uch fonemadan tashkil topgan, ular orasidagi eng jaranglisi yunfu⁷¹ deb nomlanadi. Yunfu oldidagi tovush yun tou⁷² , yana oraliq tovush deb ham yuritiladi. Yunfuning orqa tovushi yunwei⁷³ deyiladi. Yunmu o'rta yunmu asosidagi muhim qism hisoblanib, shu bilan birga u yunmu boshi, yunmu orqa bilan ham kelishi mumkin. Masalan, bir yunmu orasida bitta fonema bo'ladigan bo'lsa, u holda shu fonema yunmu o'rta

⁷⁰ “实用普通话培训教程” 山东，2004，

⁷¹ 韵腹 yunfu bu xitoy tilida qabul qilingan lingvistik atama bo'lib, u yunmu o'rtani anglatadi.

⁷² 韵头 yuntou xitoy tilidagi yunmuga tegishli atama bo'lib, u yunmu boshini anglatadi.

⁷³ 韵尾 yunwei ham xitoy tilidagi yunmuga tegishli atama bo'lib, yunmu oxirini anglatadi.

hisoblanadi. Agarda bir yunmu ichida ikkita unli bo'ladigan bo'lsa, ulardan biri yunmu o'rta, ikkinchisi esa yunmu boshi yoki yunmu orqa bo'lishi mumkin. 39 ta yunmular orasida yakka holda keladigan yunmular faqatgina yunmu o'rtadir. Ikki qismdan tashkil topgan yunmularning tarkibi yunmu o'rta va yunmu orqa yoki yunmu boshidan iborat bo'ladi. Ya'ni ularning qaysi qismi jarangliligiga qarab, yunmu boshi yoki yunmu orqa bo'lib keladi. Masalan:

ai, ei, ao, ou, ia, ie, ua, uo, üe.⁷⁴

Uch qismdan iborat yunmular yunmu boshi, yunmu o'rta va yunmu orqadan iborat bo'lib, u to'liq yunmu hisoblanadi. Masalan:

iao, iou, uai, uei.

Hozirda mavjud bo'lgan bo'g'inlarning soni 405 dan ortiq. Bu bo'g'inlarning jadvali ilovada berilgan.⁷⁵

Xitoy tilining muhim xususiyati shundaki, uning har bir morfemasi alohida bir bo'g'inni tashkil etadi. Bir nechta bo'g'indan iborat morfemalar kamdan kam holatlarda uchraydi. Ular ko'pincha ikki bo'g'inli so'zlarni tashkil etadi. Masalan:

蝌蚪 ke dou – baqa bolasi

扁舟 pian zhou – qayiq

困难 kun nan – qiyin

容易 rong yi – oson

Bu ko'p morfemali so'zlarda har bir bo'g'inning ma'nosi noma'lum, hozirgi zamon xitoy tilisi uchun ular bo'linmas bir butundir. Masalan:

葡萄 pu tao – uzum

邻居 linju – qo'shni

繁荣 fan rong – gullab-yashnamoq

正式 zheng shi-rasmiy

⁷⁴ «现代汉语»北京, 1986, 33 页。

⁷⁵ A . Karimov. « Xitoy tili grammatikasi» 2004,126-b.

Xitoy tilida bo'g'indan kichikroq bo'lib, o'z ma'nosiga ega so'z turkumi mavjud emas. Shuning uchun xitoy tilidagi morfemalar bo'g'inli morfema deb ataladi. Xitoy tilining shu xususiyati uni rus tili yoki boshqa tillarda farqli tomonidir.⁷⁶

Xulosa: ikkinchi bobni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik.

— Xitoy tilining pinyin zimusi 1958-yilda qabul qilingan bo'lib, u lotin grafikasidagi alifboga asoslangan. U murakkab o'qilishga ega bo'lgan ierogliflarni o'qilishini osonlashtiradi. Maktab ta'limida ham avval lotin grafikasiga asoslangan alifbo o'rganiladi, undan so'ng shu tovushlar yordamida ierogliflar o'rganiladi.

— Shengmu va yunmu asosi lotin alifbosidagi unli va undosh tovushlardan iborat. Shengmu va yunmuni bir yoki bir necha tovushlarning birikishidan hosil bo'ladi. Shengmu ham, yunmu ham o'z ichida bir necha guruhlariga bo'linadi. Ya'ni shengmu 7 ta guruhga bo'linadi, yunmu esa 3 ta guruhga bo'linadi.

— Shengmu va yunmu qo'shilishi natijasida bo'g'in hosil bo'ladi. Yakka yunmuning o'zi bo'g'in bo'la oladi, lekin shengmu o'z oldiga bo'g'in bo'la olmaydi. Shengmu va yunmularni qo'shilishi jarayonida turli xil tovush o'zgarishlari hosil bo'ladi. Bu o'zgarishlar qo'shib yozish qoidalari hisoblanadi.

— Xitoy adabiy nutqining boshqa tillarga o'xshamaydigan xususiyatlaridan biri, unda ohangning mavjudligidir. Ya'ni xitoy adabiy tilining og'zaki nutqida ohang o'ziga xos vazifa bajaradi. U so'z ma'nosini farqlashda muhim rol o'ynaydi. Xitoy tilida asosan 4 ta ohang mavjud bo'lib, ohang belgilari bo'g'in orasidagi asosiy unli tovushning ustiga qo'yiladi.

— Bo'g'inning mavjudligi xitoy tilining boshqa tillardan yana bir farqli tomonidir. Ya'ni bir ieroglif bir bo'g'inga to'g'ri keladi. U xitoy tilida fonetik birlikni hosil qiluvchi bir yoki bir necha tovushlardan iborat eng kichik nutq birligidir.

⁷⁶ Софронов.М.В.В. Китайский язык и китайский общество., М.:2009. С .24.

Xulosa

Mavzuni o'rganish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

— Xitoy qadimiy davlatlardan biri bo'lib, uning nutq jabhalari ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Xitoyda shevalarning ko'pligi adabiy tilning og'zaki nutqiga ya'ni umumtushunarli shevaga ehtiyoj ancha oldin paydo bo'lishiga sabab bo'lgan va buning natijasida mil. av. VIII, VI asrlarda adabiy nutq shakllangan, xususan bu Konfutsiy yashab o'tgan davrlarga to'g'ri keladi.

— adabiy nutq paydo bo'lgandan to hozirgacha turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Quyida uning rivojlanish bosqichlari keltirilgan:

1. 雅言 yayan (mil. av. VIII, VI – mil. av. III, II asrlar)
2. 通语 tongyu (mil. av. III, II – mil. XI asrlar)
3. 官话 guanhua (mil. IX – X asrning)
4. 国语 guoyu (1914 – 1957 – yillarda)
5. 普通话 putonghua 1957-yilda qo'llanila boshlandi.

— Xitoyda dastlabki adabiy tilning og'zaki nutqi 雅言 yayan bo'lib, u Zhou sulolasi hukmronligi davrida amalda qo'llangan. Uni faqat amaldorlar, ziyolilargina bilgan. Konfutsiy ham o'z shogidlariga 雅言 ya yandan foydalanib dars o'tgan. Uning shogirdlari ham 雅言 yayandan foydalanib o'zaro aloqa qilishgan. Chunki ular Xitoyning turli tomonlaridan kelishgan bo'lib, shevalari ham turlicha bo'lgan.

—通语 tongyu adabiy nutqning ikkinchi bosqichi bo'lib, u mil IIasrdan X-XI asrlarda amalda qo'llanilgan. Uning talaffuzidan ko'proq saroyda va mahalliy hukumatning idoralarida olib boriladigan ishlarda foydalanilgan. Chunki tongyu boshqa shevalarga qaraganda namunali sheva hisoblangan.

—官话 guanhua adabiy nutqi bu amaldorlar tili bo'lib, u XIII asrdan to XX asrgacha amalda qo'llanilgan va ko'proq amaldorlar, uni yuqori qatlam, o'rta qatlam va ziyolilargina bilgan. Bu nutq poytaxt shevasi bo'lgan. Uning adabiy

tilning og'aki nutqi bo'lishiga birinchidan, poytaxt shevasi ekanligi, ikkinchidan, manjurlar Xitoyni bosib olgandan so'ng, ular faqat shu shevada so'zlasha olishgani, ular barcha ishlarni shu tilda olib borishi asosiy sabab bo'ldi.

— Adabiy tilning og'zaki nutqi 国语 guoyuning asosida guanhua shevasi yotadi.

Guoyu 1918-yildan to 1957-yilgacha amalda bo'lgan. 官话 guanhuaning guoyuga aylantirilishiga asosiy sabab, guanhua nomining bir tomonlama ekanligidir, ya'ni nomidan kelib chiqib faqat amaldorlar tili ma'nosini anglatishidir. Bu esa keng ommani savodsizligiga sabab bo'layotgan edi. Guoyu esa aksincha edi.

— Guoyu ham keng ommani savodsizligini bartaraf etmadi. Shundan so'ng bu nutq 普通话 putonghuaga o'zgartirildi. Putonghua 1958-yildan rasmiy ravishda qo'llana boshlandi. Putonghua nisbatan sodda nutq bo'lib, u keng ommani savodsizligini bartaraf etish uchun joriy etilgan. Bu nutq yuzasidan Zhuo En Lai ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

—Putonghua bu hozirgi zamon xitoy tilining adabiy talaffuzi bo'lib, uning fonetikasi ya'ni orfografiyasi (to'g'ri yozish), orfoepiyasi (to'g'ri talaffuz) qoidalari asrlar osha ming yillab jarayonda shakllangan. Bu shakllanishda yayan, tongyu, guanhua, guoyularning xizmati kattadir.

—1958 yili Putonghua talaffuzini chiqarish uchun , 拼音字母 pinyin zimu qabul qilindi. Shengmu va yunmu asosi lotin alifbosidagi unli va undosh tovushlardan iborat. Shengmu va yunmu bir yoki bir necha tovushlarning birikishidan hosil bo'ladi. Shengmu ham, yunmu ham o'z ichida bir necha guruhlariga bo'linadi. Masalan: shengmu 7 ta turga, yunmu 3 ta turga bo'linadi.

— Shengdiao va yinjielar ham putonghuaning fonetik strukturasi tashkil etadi. Ularning o'rni juda muhimdir. Xususan ohang xitoy tilini boshqa tillardan farqlab turuvchi eng asosiy xususiyatlaridan biri. Shu bilan birga ohang so'zning

ma'nosini farqlashda muhim rol o'ynaydi. Xitoy tilida 4 ta ohang turi mavjud bo'lib, hozirda ular standart qilib belgilangan. Chunki xitoyning ba'zi shevalarida 10 tagacha ohang mavjud. Ohang belgisi bo'g'in tarkibidagi asosiy unli tovushning ustiga qo'yiladi.

— Xitoy tilida shengmu va yunmuning qo'shilishi natijasida bo'g'in hosil bo'ladi. Bo'g'in xitoy tilidagi eng kichkina ma'no anglatuvchi bo'lak hisoblanadi. Bitta ieroglif bitta bo'g'in bo'ladi. Ba'zida ikkita ieroglif ham bir bo'g'in bo'lib kelishi mumkin. Masalan: 花儿 huar , 孩儿 hair va shunga o'xshash so'zlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. I. A. Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: 2008.
2. L. A. Sultanova, J. T. Ziyamammedov, M. A. Turatova "Xitoy tili" T.: 2009.
3. A. Karimov, Sh. Xidoyatova "xitoy tili grammatikasi" T.: 2003.
4. SH. I. Hidoyatova, E. M. Aminov "Fonetika" T.: 1992.
5. M. X. Maxmudxo'jayev, I. Bekmurotov "Xitoy yozuvi" T.: 1990.
6. A. Xojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli tahlili" T.: 2002.
7. "Tilshunoslik atamalarining ruscha-o'zbekcha qisqacha lug'ati" T.: 1993.
8. SH. I. SHazamonov, I. N. Bekmurotov " Xitoyda til vaziyati va siyosati" T.: 2010

Rus tilidagi adabiyotlar

9. M.B.V. Софронов Китайский язык и китайский общество. М.: 2009.
10. M.B.V. Софронов Китайский язык и китайский общество. М.:1979.
11. Русско-узбекский словарь. Т.: 1972.

Xitoy tilidagi adabiyotlar

12. "实用普通话培训教程" 山东. 2004 年.
13. "现代汉语" 北京. 1986 年.
14. "现代汉语" 北京.1984 年.
15. "现代汉语" 北京, 1988 年.
16. "中国语文概要" 北京, 1990 年.
17. "辞海" 山海, 2008 年.
18. "辞海" 北, 1994 年.
19. "汉语拼音方案草案" 北京,1958 年.

20. “汉语拼音基础知音” 北京.
21. “论语。孟子。孝经。尔雅” 北京，1997 年。
22. “新编小学生字典” 北京，1987。
23. Zhou En Lai “ Tanlangan asarlari” Pekin, 1984-y.
24. “小学教师实用语文辞典” 北京, 1989 年.
25. “汉语普通话语音” 北京, 2008 年.
26. “新华词典” (Xitoy tilining yangi izohli lug’ati),北京，1987 年.
27. Китайский-русский словарь. “汉俄词典” 北京, 2008 年.
28. Китайско-русский и русско-китайский словарь .“汉俄 俄汉词典” М.: 2009 年.
29. “精选俄汉汉俄词典” 北京, 1994 年.
30. Китайско-русский словарь. М.: 1984.
31. 现代汉语语法。 北京。2000 年。
32. 现代俄汉词典。 北京。1998 年
33. 汉俄词典。 北京。2006 年。
34. www.filology.ru
35. www.baidu.com
36. www.chinagrammar.cn